

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 373.6

MURATOVA NODIRA ISKANDAROVA

**PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA VATANPARVARLIKNI
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK JIHATLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYASI**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.

Pedagogika kafedrası mudiri
dots.K.Hasanova-----

“---”-----2017 y.

Ilmiy rahbar:

p.f.n,dots. N.Kiyamov

M.O'.

SAMARQAND-2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashni takomillashtirishning ilmiy- pedagogik asoslari.....	9
1.1. Pedagogika kolleji o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	9
1.2. Pedagogika kolleji o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirishning asosiy xususiyatlari.....	20
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	35
2-BOB. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning pedagogik texnologiyasi asoslari.....	37
2.1. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashning metodologik omillari.....	37
2.2. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalash- ning pedagogik texnologiyasi.....	48
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	63
3-BOB. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari.....	64
3.1. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashning amaliy jihatlari.....	64
3.2. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘ularinining pedagogik jihatlari bo‘yicha tajriba-sinov ishlari va uning natijalari.....	73
UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR.....	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	85
ILOVALAR.....	92

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy yo‘nalishlarini rivojlantirishda va demokratik, insonparvarlik jamiyatini qurishda xalq ta’limi tizimini takomillashtirish, ayniqsa, pedagogika kasb-hunar kollejlari ish faoliyatini yuqori darajaga ko‘tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajagimizning taqdiri ta’lim muassasalarida hozirgi kunda ilm olayotgan yoshlarning, bolalarning ta’lim-tarbiyasiga bog‘liqdir.

Hozirgi paytda ta’lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama etuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, vatanparvar, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Shularga asosan Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishning huquqiy–me’yoriy asosi yaratildi [16].

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni [15, 16] kasb-hunar ta’limi tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda ilmiy dunyoqarashni, ijtimoiy foydali mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish, ularda yuksak vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish vazifasini qo‘yadi.

Yuqoridagi qonunlarni amalga oshirish bo‘yicha qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi «Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida» gi 5-sonli hamda 13 maydagi «O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb–hunar ta’limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 204-sonli qarorlari respublikamiz turli sohalariga malakali kadrlar tayyorlash uchun ta’lim mazmunini shakllantirish muammosini o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi oldiga qo‘ydi. Shunday ekan, ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini ta’minlamay turib, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi vatanparvar tuyg‘ulari shakllangan malakali kadrlar tayyorlash mumkin emas [14].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, vatanparvarlik tuyg‘usi dastlab oilada, bog‘chada, boshlang‘ich sinflarda, umumta’lim maktablarida, qolaversa pedagogika kasb-hunar kollejlari bilim olayotgan yoshlarda shakllanadi.

Ta'limning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchining vatanparvarligi, dunyoqarashi shunchalik rivojlanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov «...bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng etuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi. Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak? Bola 1-4 sinflarda qanday bilimga ega bo'lishi lozim? Uning tarbiyasi qanday bo'lishi kerak? Shu masalalarga javob topishimiz zarur» [7, 14].

O'zbekiston mustaqilligi tufayli kasb-hunar kollejlari mazmuni tubdan o'zgardi. Milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida yangi dasturlar, darsliklar, o'quv metodik tavsiyalar, ilmiy-metodik qo'llanmalar yaratildi. Dunyoqarashi keng, respublikamizda pedagogika kollejlari o'quvchilarini yangi talab asosida o'qitish va tarbiyalashga alohida e'tibor berildi. Pedagogika kollejlari bo'yicha davlat ta'lim standarti, ta'lim konsepsiyasi yaratildi.

Muammoning ishlanganlik darajasi: O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Vatanparvarlik – bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shavqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatiga yotdir. Bizning xalqimiz o'zining voqealariga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p narsalarni boshidan kechirdi. Madaniyat ilm, fan, o'z davlatchiligi yutuqlari nashidasini surdi, o'zaro nizolar, begonalar asorati alimini tortdi, eng yaxshi o'g'il – qizlaridan judo bo'ldi. Lekin tarixning o'yini ham, ommonsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tuShurolmadi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlariga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlangandir» [5].

Shuni aytish kerakki, kasb-hunar kollejlaridagi ta'lim-tarbiya muammolarini echish, ayniqsa, pedagogika kollejlaridagi ta'lim-tarbiyani nazariy va amaliy jihatdan o'rganish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash Yuzasidan I.A.Allayorov, N.Saidaxmedov, A.Gulyamov va boshqalar, mehnat ta'limi Yuzasidan Yu.K. Babanskiy, U.N.Nishonaliyev, E.T.

Choriev, A.R. Xodjaboev, N. Shodiev va boshqalar, kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish yuzasidan S.YA. Batyishev, V.A.Skakun, R.X. Jo'raev, U.I. Inoyatov, A.A. Ismoilov, N.A. Muslimov, X.F. Rashidov, N.Qiyomov, A.Abdumannapov va boshqalar, o'quv tarbiya jarayonining uslubiy ta'minotiga oid A.R.Xodjabaev, E.D.Idiatulina, Q.T.Olimov, kompYuter-axborot tizimlariga oid T.F.Bekmuratov, X.F. Rashidov, K.R.Allaev, A.A.Abdukodirov, U.I. Inoyatov, M.M.Aripov, U.Yuldashev, R.Xamdamov kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. X.Bobomirzaev, U.Rajabovlarning ishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodini o'rganish asosida tarbiyalash muammolari pedagogik jihatdan ishlab chiqilgan.

M.Yusupov, Z.Ibragimova, N.Tilyaboalar ham o'z ilmiy tadqiqot ishlarida boshlanich ta'lim mazmuni, maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni ertaklar asosida tarbiyalashni va ularda vatanparvarlik his tuyg'ulari shakllanish masalalarini hal etishgan.

Bugungi kunda pedagogika kollejlari odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni xurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amho'rlik qilish haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish vatanparvarlikning asosiy negizini tashkil etadi. Adabiyotlarni o'rganish va pedagogika kollejlari ish tajribasini kuzatishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, pedagogika kollejlari o'quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalash ishlari etarlicha hal etilmagan muammo bo'lib kelmoqda. Ana shu muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot mavzusini: **«Pedagogika kollejlari o'quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashning pedagogik jihatlarini takomillashtirish»** deb belgiladik.

Dissertatsiya ishining tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: magistrlik ishi Samarqand davlat universitetining ITD-1"Jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishi, ma'naviy qadriyatlar, milliy g'oya, madaniy meros, o'zbek xalqi va davlatchilik tarixini hamda ta'limning uzviylik va uzluksizlikni, barkamol avlod tarbiyasini tadqiq etish", ITD-2 "Dimokratik islohotlarni yanada

chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” ilmiy-amaliy tadqiqoti doirasida bajarildi.

Magistrlik ishining maqsadi – pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashning pedagogik mazmuni, shakl va metodlari, tizimini ishlab chiqish.

Magistrlik ishining ob’ekti – pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashni takomillashtirish jarayoni.

Magistrlik ishining predmeti – pedagogika kolleji o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashda pedagogika kollejlaridagi ta’lim-tarbiya faoliyati.

Magistrlik ishida vazifalar belgilandi:

1. Pedagogika kolleji o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashni takomillashtirish – pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash.

2. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashni takomillashtirishning pedagogik xususiyatlarini ishlab chiqish.

3. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash.

4. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashning pedagogik jihatlarini ta’minlaydigan shakl va metodlar, vositalar tizimini ishlab chiqish, ilmiy asoslash va tajribada tekshirish.

5. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashning pedagogik jihatlarini shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar tayyorlash.

Magistrlik ishining metodologik asosi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Prezidentning ta’lim-tarbiya haqidagi asarlari va nutqlari, Milliy istiqlol g‘oyasi; asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasi, O‘zbekiston davlatining milliy va ma’naviy qadriyatlari haqidagi farmonlari, hukumatimizning kasb-hunar kollejlari faoliyatini takomillashtirish haqidagi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O‘rta Osiyo mutafakkirlarining inson tarbiyasi haqidagi fikrlari, barkamol

avlod tarbiyasiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik ta'limotlar, mavzuga tegishli ilmiy-pedagogik, metodik manbalar tashkil etadi.

Magistrlik ishida qo'llanilgan metodlar:

- vatanparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasiga oid falsafiy, pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlar va pedagogika kollejlarining dasturlari, hujjatlari, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish; pedagogik kuzatuv; suhbat, anketa, kuzatish, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish; matematik statistika.

Magistrlik ishining ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati quyidagilarda o'z aksini topgan;

- vatanparvarlik tushunchasining mazmuni va mohiyati ilmiy asoslab berildi;
- pedagogika kolleji o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik jihatlarini takomillashtirish omillari aniqlandi;
- pedagogika kolleji o'quvchilarining o'quv faoliyatida vatanparvarlik tarbiyasining roli ko'rsatib berildi;
- pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlikni tarbiyalashning pedagogik shart – sharoitlari, tizimi uni o'quv tarbiya jarayonida amalga oshirish uslubiyati ishlab chiqildi.

Magistrlik ishining amaliy ahamiyati. Mavzuni o'rganish jarayonida olib borilgan tadqiqot ishlari va kuzatishimiz natijasida ishlab chiqilgan umumpedagogik va metodik tavsiyalardan pedagogika kollejlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida, pedagogika fanlari bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash, qo'llanmalar yaratishda samarali foydalanish mumkin.

Magistrlik ishi natijalarining joriy qilinishi: pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik jihatlarini shakllantirish asoslari Bulung'ur pedagogika kolleji, Samarqand pedagogika kolleji talabalarida joriy qilindi.

Tadqiqotning tajriba - sinov maydoni bo'lib Bulung'ur pedagogika kolleji, Samarqand pedagogika kollejlari biriktirildi.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari:

Birinchi bosqichda (2014 – 2015 o‘quv yilida) tadqiqot muammosiga oid pedagogik-psixologik, ilmiy-uslubiy, ilmiy - ommabop va maxsus adabiyotlar o‘rganildi, pedagogika kollejarining ma’naviy merosimizni o‘rganishdagi tajribalari tahlil qilindi va umumlashtirildi. Natijada tadqiqotning muammosi, metodologiyasi aniqlab olindi, ta’lim-tarbiya uslublari, shakllari va mazmunini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-uslubiy ishlanmalar tayyorlanadi. Tajriba-sinov ishlarining metodlari ishlab chiqiladi.

Ikkinchi bosqichda (2015 – 2016 o‘quv yilida) tadqiqot ishida ko‘tarilgan muammolar bo‘yicha Bulung‘ur pedagogika kolleji talabalari, Samarqand shahridagi pedagogika kollejlari talabalari bilan test, anketa so‘rovlari, suhbatlar, kuzatishlar o‘tkaziladi, xalq ta’limi tizimida ishlayotgan ilg‘or mutaxassislar va ma’naviyat-ma’rifat bo‘yicha rahbarlarning tajribalari o‘rganiladi, pedagogika kollejlari talabalarida shakllangan vatanparvarlik tarbiya jarayoni o‘rganilib, umumlashtiriladi va tadqiqot bo‘yicha ilmiy asoslangan va loyihalashtirilgan tajribalar o‘tkaziladi va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijalar tahlil qilinadi.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi: Dissertatsiya kirish, uchta bob va xulosa hamda adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

1-BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJLARI O'QUVCHILARIDA VATANPARVARLIKNI TARBIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY- PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalash pedagogik muammo sifatida

Ma'lumki, xalqning vatanparvarlik tarbiyasi uzoq asrlar davomida shakllangan ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin egallab kelgan. Vatanparvarlik tarbiyasining inson taqdiridagi ahamiyati Shundaki u doimo o'zining hayotiyligi, ta'sirchanligi, mehr-muruvvatligi bilan Vatanni mustahkamlashga, xalqni birlashtirishga xizmat qiladi. vatanparvarlik tarbiyasi doimo hayot va inson muammolarini moddiy va ma'naviy jihatdan hal etishda o'z ta'sirchanligini namoyish etadi. Tarbiyaning dolzarb masalalarini echishda asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalqining vatanparvarligi tajriba-sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tib, har bir davrda o'z faoliyatini takomillashtirib, avlodlar tarbiyasida hal qiluvchi rolni o'ynab keldi.

Vatanparvarlik tarbiyasi millatning barqarorligini ko'rsatuvchi va o'zbek xalqining qalbidan chiquvchi, mehr va muruvvat madaniyatini ifodalovchi fikrdir.

Vatanparvarlik tarbiyasi jamiyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Insonni vatanni sevishga chorlaydi. Jamiyatni ma'rifat bilan boshqaradi. Ijtimoiy ongni o'zgartiradi.

«Vatan tuyg'usi» kitobida yozilishicha «vatanparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ularni asrab-avaylash bilan birga Yangi zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borish–taraqqiyot mezonini, milliy ravnaq asosi. Bunday ruhiyatdagi odam hech qachon birovga tazyiq qilmaydi, shafqatsizlik va zo'ravonlik kabi g'ayriinsoniy illatlarga hamisha nafrat bilan qaraydi. O'z tabiatiga mos ravishda bag'ri keng va muruvvatli bo'ladi» [32].

Darhaqiqat, vatanparvarlik tarbiyasi – insonlarning insonlarga nisbatan mehr-oqibatlilik, saxovatlilik, muruvvatlilik, boshiga og'ir kun tushganda hamdardlik demakdir. Oynisa Musurmonovning ta'kidlashicha « vatanparvarlik insonning ezgu fikri, ezgu amaliy birligidir. Insonparvarlik – ona zaminda

yashayotgan millatidan, dinidan, ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar barcha insonlarga nisbatan g'amxo'rlikdir" [45,46].

Tarixchi olimlarning fikrlaricha, « vatanparvarlik, kindik qoni tomgan erni ulug'lash, el-yurt manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yib, boshqalarni izzat-hurmat qilishdan zavqlanish, aka-ukachilik, o'zaro mehr-oqibatning kuchliligi, kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixohlik bilan qarash, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish, o'zaro yordam tuyg'usi, milliy an'ana, urf-odatlarimizning turmush tarzida ustuvor mavqeni egallashi kabi oliyjanob fazilatlar o'zbek xalqi mentalitetini tashkil etadi» [31].

Faylasuf olim A.Ochildiev o'zining "Milliy fazilatlarimiz vatanparvarlik" risolasida " vatanparvarlik insonning o'z vataniga muhabbatini va uni asrab-avaylashga bo'lgan intilishini anglatadi. Ota-bobolarimiz, ulug' ajdodlarimiz va allomalarimiz Vatanga muhabbat va sadoqatni ifoda etish borasida namuna ko'rsatishidir.

Vatanparvarlik - Vatanga nisbatan sadoqat bilan xizmat qilish, uni dushmanlardan himoya etish, yurt tinchligini asrash, uning ozodligi, mustaqilligi, ravnaqi va farovonligi uchun kurash, milliy manfaatlarni himoya qilish.

Vatanparvarlik Vatanni sevishi, u bilan g'ururlanish, ona yurt erishgan muvaffaqiyatlardan quvonish, uning istiqboli uchun qayg'urish kabi his-tuyg'ularda namoyon bo'ladi" [61]. –deb ta'rif beradi.

"Vatandan tashqarida, - deydi Ibrohim Haqqul, - Vatan yo'q. Mana shuning uchun inson faqat jonajon yurtida o'zini mag'rur, xotirjam his qiladi. Vatan sevgisidan yorug' e'tiqod va iymon uyg'oq. Jamiki insoniy jasoratlarning onasi - Vatan... Vatanni sevish - burch, kurash, zarur chog'da hech ikkilanmasdan jonini qurbon qilishdir"[38].

Vatan (arabcha "vatan" – ona yurt) – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiymuhiti, mamlakati [47, 34-b.].

Publitsest yozuvchi A.Ibrohimov milliy istiqlol g'oyasining yadrosi sifatida vatanparvarlik qadriyatini taqdim qiladi. Uning fikricha, “vatanparvarlik – milliy qadriyatlarni chuqur bilish, ularga amal qilish va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishdir”[32]. Bunday yondashuv to‘g‘ri bo‘lib, milliy istiqlol g'oyasining mazmun – mohiyatini ifodalaydi. Negaki vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lmagan inson millat, xalq, jamiyat va davlat uchun fidoyi bo‘la olmaydi. Ayni paytda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar vatanparvarlikning ikki qanotidir. Unga ko‘ra, Vatan deb milliy qadriyatlarni yoki umuminsoniy qadriyatlarni ustuvor qo‘yib bo‘lmaydi. Aksincha, vatanparvarlik bu ikki qadriyatning uyg‘unlagida namoyon bo‘ladi.

Birinchi Prezident Islom Karimovning “Vatan – bu avvalo, ota-ona, tug‘ilgan er, sevikli yor, do‘st birodar deganidir. Shu qutlug‘ tushunchalar birlashib Vatan tuyg‘usini hosil qiladi. Askar Vatanini himoya qilar ekan, birinchi navbatda ota-onasi, kindik qoni to‘kilgan tuprog‘i, dilbar yoru qarindoshlarini ko‘z oldiga keltiradi. Vatanni asl farzandlargina himoya qila oladi” [5. 11-b.], – deb aytgan fikrlarida vatanparvarlik eng oliy, eng muqaddas tuyg‘u ekanligi, Vatanga bo‘lgan muhabbat ota-ona, tug‘ilgan er, Vatanparvarlik bir necha tushunchalar tizimi ekanligini ifodalaydi.

Xalqimizda “ona-Vatanim”, “ota yurtim”, “ona shahrim”, “ota qishlog‘im” so‘zlarining qo‘llanishi bejiz emas, albatta. Vatanini sevgan, unga muhabbati va e‘tiqodi bo‘lgan har bir inson o‘z ona-Vatanida, ayniqsa, mustaqil Vatanda yashab, ijod qilayotganidan faxrlanadi va quvonadi, bizning fikrimizcha, bunday tuyg‘u vatanparvarlik belgisidir.

Vatanparvarlik – kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir.

Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlarining yuksak namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarni, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlardan himoya qilish, har qanday

qaramlikdan ozod etish, hatto, zarur bo'lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamasklik kabilar yotadi. Vatanparvarlik el-yurt manfaatlariga xizmat qilish, el-yurt manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish demakdir [47, 35 b.].

Fidoyilik vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida mustahkamlanishi, uning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti, mehnatkashlarning farovon hayotga erishish uchun tinmay mehnat qilishi va izlanishini fidoyilik deyishimiz mumkin. Fidoyilik Vatanga bo'lgan sadoqatdan, muhabbatdan boshlanadi. Istagan sohada vatanparvarlik tuyg'usini namoyon qilish mumkin. Tabiatni muhofaza qilish, otabobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish kabilar ham vatanparvarlik hisoblanadi [47, 35-b.].

Vatanparvarlikning oliy ko'rinishi jasoratdir. Jasorat kishining Vatan va yurtdoshlari uchun o'z manfaatlaridan, kerak bo'lsa, jonidan ham kechib, namoyon etadigan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlaridir. Jasorat xalq farovonligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi. Vatan himoyasi uchun qilingan uzoq mehnatda ham, o'zini fido qilish talab etiladigan favqulodda holatlarda ham namoyon bo'lishi mumkin [47, 35-b.].

Vatanparvarlik o'zbek xalqining milliy tuyg'usini rivojlantirish, milliy yuksalish g'oyalarini targ'ib qilish, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elatlar o'rtasidagi do'stlik, tinchlik va ahillikni mustahkamlash uchun kurashishda ham namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, u O'zbekistonda demokratiya va hurfiakrlilikning qaror topishiga g'ov bo'layotgan hollarga qarshi kurashishni ham o'z ichiga oladi [47, 35-b.].

I.Xo'jamurodov va N.Saydullaevalarning fikricha, vatanparvarlik shu yurtda istiqomat qilayotgan barcha millat fuqarolari bilan ahil, do'st- birodar bo'lib yashashdan, yagona vatan manfaati, xalq tinchligi va osoyishtaligi uchun kurashishdan iborat. Mustaqillik tufayli qo'lga kiritilgan jahonshumul yutuqlarimizni qadriga etish va asrash, milliy madhiya, gerbimiz va bayrog'imizni sevisht, jasoratiga hurmat bilan qarash chinakam vatanparvarlikdir [73, 117-b.].

Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Mustaqil o'zbek davlati – xalqimizning tarixiy yutug'idir. O'z davlati bilan faxrlanish va fuqarolarning vatanparvarligi jahondagi ko'pgina mamlakatlarning ilg'or marralariga chiqib olishida yordam beragan. Mamlakatimiz tuprog'ida yashab turgan va o'zini vatanparvar deb hisoblagan har bir kishi uning yaxlitligi va birligini avaylab- asrashi shart" [12].

Yuqorida bildirilgan mulohazalardan vatanparvarlik to'g'risida quyidagi holatlarni aks etirishini ta'kidlab o'tmoqchimiz:

- 1) Vatan, Vatanni sevish;
- 2) vatanparvarlik, har qanday vaziyatda ham Vatanni tark etmaslik;
- 3) shovinizm, irqchilik, millatchilik hamda diniy adovat g'oyalarini inkor etish;
- 4) insonparvarlik
- 6) milliy qadriyatlarga sodiqlik, shuningdek, ijtimoiy hayotda urf-odatlarining etakchi o'rin egallashi;
- 7) milliy g'urur, or-nomus, qadr-qimmat;
- 8) adolatlilik, halollik, oriyatlilik;

Vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni quyidagi munosabatlarni tarkib toptirishni o'z ichiga oladi:

- jamiyatga munosabat (ijtimoiy-siyosiy faollik, milliy istiqlool mafkurasiga sodiqlik, jamiyat rivojlanib borishi va istiqbollarni tuShunish, mamlakat ichkarisidagi va xalqaro miqyosdagi voqealarni to'g'ri baholash, burch va ma'suliyatni his qilish, saxiylik, saxovat, mehr - oqibat, ehtiyotkorlik, intizomlilik, qonunbuzarlikka nisbatan murosasizlik va b.);

- mehnatga munosabat (mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tejamkorlik, mehnat madaniyatining mavjudligi, o'qishga ma'suliyatli munosabatda bo'lish va b.)

- Vatanga munosabat (vatanparvarlik, baynalminalllik);

- boshqa insonlarga munosabat (o'zaro o'rtoqlik yordam, xushmuomala-lilik, mehr-oqibat, oiladagi o'zaro hurmat, burch va javobgarlik hamda bolalar tarbiyasi to'g'risidagi g'amxo'rlik va b.)

- o'ziga munosabat (o'z ijtimoiy burchini yuksak darajada anglash, halollik va rostgo'ylik, axloqan poklik, turmushda oddiylik va kamtarinlik, axloqsizlikka nisbatan murosasizlik).

Shunday ekan, pedagogika kolleji o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish ijtimoiy buyurtma sifatida jamiyat taraqqiyotini rivojlantirishda, kasb-hunar kolleji ta'lim mazmunini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda o'quvchilarning vatanparvarlik, insonparvarlik, hayotiylik, umummadaniy va ahloqiy ko'nikmalari, malakalari ma'lum darajada shakllangan bo'ladi.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirishda har bir o'qituvchi quyidagi shartlarni e'tiborga olishi lozim:

- jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini baholay olish;
- muayyan jamiyatda yashash uchun kishi qanday sifatlarga ega bo'lishini aniqlay olish;
- demokratiyalashgan sharoitda yashash va undan demokratik asosda foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish; bu har xil nuqtai nazarlarni qabul qila olish, turli kelishmovchiliklarni demokratik asosida insonparvarlik, munozara yo'li bilan hal etish;
- o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda aniq bayon eta olish, fikrini isbotlay olish, so'zlashish, boshqalarni eshitish va ishontira olish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- bilim egallashga ehtiyojni sezish va o'z bilimi va qobiliyatini namoyon qila olish ko'nikmasiga egalik bo'lishi; o'qish va jamoa ishlarida faol ishtirok etish, ishga ijodiy munosabatni shakllantirish;
- o'ziga nisbatan talabchan, xatti-harakatlaridagi kamchiliklarni bartaraf eta olish;
- vatanparvarlik tarbiyasigi ega bo'lish; mehribonlik, g'ururli bo'lish;
- psixo-analitik sifatlarga; o'zini-o'zi nazorat qilish, o'ziga tanqidiy munosabat, o'zini baholay olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- psixo-pedagogik sifatlari: moslashuvchanlik, kirishimlilik, so'zga chechanlik va boshqalar.

Sanab oʻtilgan sifatlarni pedagogika kolleji oʻquvchilari ongiga singdirish uchun quyidagi shart-sharoitlarga amal qilish zarur:

- oʻquvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishni ijtimoiy hayot sharoitlari bilan bogʻlab olib borish;
- oʻquvchilarni ijtimoiy yoʻnaltirish, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy faoliyatni tashkil etish;
- ijtimoiy onglilik ijtimoiy hayot vaziyatlaridan toʻgʻri yoʻl topib chiqa olish maʼnaviyatlilik, komillik belgisi ekanligini tushuntirish;
- oʻquvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini tarkib toptirish, ijtimoiy faol etib tarbiyalashda ijtimoiy fanlar imkoniyatlaridan foydalanish;
- dars va darsdan tashqari jarayonidagi faoliyat uzviyligini taʼminlash;
- aniq faktlar va dalillarga ega boʻlgan misollar asosida mustaqil, tanqidiy fikirlash layoqatini shakllantirish va x.k.

Ushbu fikrlarning xulosasi oʻrnida shuni taʼkidlash mumkinki, jahon hamjamiyatida ijtimoiy siyosiy vaziyatlarning keskinlashayotgan bir sharoitida pedagogika kollejlari oʻquvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan pedagogika kollejlari oʻquvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishda ularda fuqarolik jamiyatida yashay olish, mamlakat ijtimoiy hayotiga erkin aralashish, turli ijtimoiy munosabatlarga faol kirishish, oʻz-oʻzini anglash, qadriyatlar dunyosida erkin harakat qilish kabi malakalarni rivojlantirish muhim jihatlaridan sanaladi.

Chunki, rivojlanishning barcha sohalarida integratsiyalashayotgan, inson huquqlari rioya qilish orqali huquqiy-demokratik davlat qurishga intilayotgan Oʻzbekiston Respublikasida ushbu jarayonda faol ishtirok eta oladigan, siyosiy tajavvuzkor kuchlarga qarshi oʻz mustaqil, tanqidiy fikri bilan chiqa oladigan, gʻoyaviy jihatdan etuk insonlarni tayyorlash taʼlim tizimidagi dolzarb muammolardan sanaladi. Bugungi kunda nafaqat Oʻzbekistonda balki, jahon hamjamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat; diniy ekstremizm, giyohvand singari salbiy illatlarning avj olayotganligi taʼlim sohasida muhim tadbirlarni joriy etishni, shu negizda oʻsib kelayotgan avlodni vatanparvarlik, vatanparvarlik tuygʻulariga

ega bo'lgan, salbiy illatlarga qarshi faol kurasha oladigan etib tarbiyalash davr talabidir.

Xalqimiz uzoq o'tmishi ham vatanparvarligi ham ta'limotlar bilan yo'g'rilgan. Jumladan, muqaddas kitobimiz "Avesto", Al-Farobiyning "Fozil odamlar shahri" , Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonidagi vatanparvarlik ta'limotlarida o'zbek xalqining tom ma'noda vatanparvar bo'lganligini isbotlaydilar.

Vatanparvarlik tarbiyasi – kishining o'z vatanini asrab avvaylashi, ko'z qorachig'iday asrash, vatan uchun barpo etuvchilik xislatlarining majmui va taraqqiyot yo'lidagi g'ayrat-shijoat namunasi bo'lib, xalqni baxt-saodati yo'lidagi harakatlarini rivojlantiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi - kishilarning Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi faoliyati bo'lib, uning mazmunida xalqparvarlik, tinchlik, ozodlik, hurfiylik bag'rikenglik, do'stlik, birodorlik kabilar chuqur o'rin egallagan.

Demak, vatanparvarlik tarbiyasi kishilardagi ijobiy xislat bo'lib, Ozod va Obod Vatan, Erkin va farovon hayot qurishdek jarayonning faol ishtirokchisi bo'lishni talab etadi. Shuning bilan birga vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat vatanni asrash, uni sevish, balki ijobiy ta'sir etuvchi faoliyati hamdir.

Vatanparvarlik tarbiyasining mazmun va mohiyati, uning tarixiy taraqqiyot qonuniyati, o'ziga xos muammolari, madaniy-ma'naviy, g'oyaviy-axloqiy asoslarining ilmiy-pedagogik ma'nosi nimalardan iborat ekanligini talabalarga keng va atroflicha tushuntirish va ularni undan tegishli xulosalar chiqarishga o'rgatish muhimdir. Chunki, uning negizida shu zaminda istiqomat qilayotgan, O'zbekistonni o'zining jonajon Vatani deb bilgan barcha millat va elatlarning teng huquqligi, qadr-qimmat, or-nomusi, milliy g'ururi, jamiki manfaatlarini himoya qilish etakchi o'rin tutadi. Vatanparvarlik tarbiyasi hozirgi paytda ham, kelajakda ham kishilarni vatanni sevishi, uni ardoqlashga chorlaydi.

Vatanparvarlik tarbiyasi bu - tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahllik va hamjihatlikni mustahkamlash yo'lidagi vazifalarni hal

etish demakdir. Ya'ni har bir odam tinchlik va osoyishtalikni qadriga etib, uni mustahkamlash, uni himoyalash muhim hisoblanadi.

Pedagog olimlarimiz “vatanparvarlik tushunchasi azal-azaldan xalqimizning ongu tafakkuriga, avvalambor, vatanni sevishi, uning kelajagi va istiqboli uchun qayg'urishi ma'nosini o'zida mujassamlagan. Shuning uchun ham bugungi kunda vatanparvarlik tushunchasi Vatan ravnaqi va yurt tinchligi g'oyasining asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi” [76] - deb ta'kidlashadi.

Vatanparvarlik tarbiyasi – mamlakatni yanada obod qilish, haqiqatni chuqur anglab olish, hayotimizni obod qilish, erkin va farovon hayot qurish, vatan timsollariga hurmat va e'tiborda qarash, ijtimoiy-iqtisodiyotini yanada kuchaytirishdir.

Vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni quyidagi munosabatlarni tarkib toptirishni o'z ichiga oladi:

-jamiyatga, vatanga munosabat (ijtimoiy-siyosiy faollik, milliy istiqlool mafkurasiga sodiqlik, jahonda tinchlik masalalarini tushunish, mamlakat ichkarisidagi va xalqaro miqyosdagi voqealarni to'g'ri baholash, burch va ma'suliyatni his qilish, vatanparvarlik, ehtiyotkorlik, intizomlilik, qonunbuzarlikka nisbatan murosasizlik va b.);

- Vatanga munosabat (vatanparvarlik, baynalminallik);

- boshqa insonlarga munosabat (o'zaro o'rtoqlik yordam, xushmuomallilik, mehr-oqibat, oiladagi o'zaro hurmat, burch va javobgarlik hamda bolalar tarbiyasi to'g'risidagi g'amxo'rlik va b.)

o'ziga munosabat (o'z ijtimoiy burchini yuksak darajada anglash, halollik va rostgo'ylik, axloqan poklik, turmushda odsiylik va kamtarinlik, axloqsizlikka nisbatan murosasizlik).

Vatanparvarlikni shakllantirish mazmunida tushunchalar kompleks hisoblanadi, “Vatan”, “Vatan tuyg'usi”, “Vatanni sevish”, “Vatan ravnaqi” kabilar muhim o'rin tutadi.

Vatanparvarlik tarbiyasi bu bizni o'rab turgan mamlakatimizni asrab-avaylashi, insonning o'z Vataniga muhabbatini va unga bo'lgan intilishini

anglatadi. Demak, vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirish asosini Vatan bilan g'ururlanish, ona yurt erishgan muvaffaqiyatlar bilan quvonish, uning istiqboli uchun qayg'urish kabi his-tuyg'ular tashkil etadi.

K.Abdullaeva, R.G'.Safarova, N.U.Bikbaeva, A.Baxramovlar tomonidan ishlab chiqilgan, boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida «...boshlang'ich ta'lim jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib, takomillashib boruvchi ta'lim nazariyasiga tayangan holda, muntazam tarzda rivojlantiriladi va shaxsni ham jamiyat talablari asosida rivojlantirib borishini nazarda tutadi» [30] deb ta'kidlanishi bilan birga, «boshlang'ich ta'limning insonparvarligi va umuminsoniyligi» boshlang'ich ta'limni tashkil etish prinsiplaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shunday ekan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalaydigan pedagogika kolleji o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasi ijtimoiy buYurtma sifatida jamiyat taraqqiyotini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Shuni aytish kerakki, pedagogika kollejlardagi ta'lim inson hayotida birinchi kichik mutaxassis tayyorlaydigan ijtimoiy bosqichdir. Chunki pedagogika kollejlarda mutaxassislik berish bilan birga ularning ongi, irodasi, vatanparvarlik tarbiyasining rivojlantirishda muhim davr hisoblanadi.

O'quvchilarning haqiqiy vatanparvar, sofdil va adolatli mard va olijanob rahmdil, o'z Vatanning jonkuyari va yaratuvchi bo'lishi uning pedagogika kollejlarda egallagan bilimi va tarbiyalanishiga bog'liq. Shunga ko'ra pedagogika kollejlari oldida turgan vazifa juda jiddiy ahamiyatga ega. Pedagogika kollejlari o'quvchining o'z hayotini jamiyat manfaati bilan bog'lab borishi, ichki munosabatlardan ijtimoiy munosabatlarga o'tishi, oldiga qo'yilgan hayotiy maqsadlari esa jamiyat maqsadlari bilan mushtarak bo'lishiga erishmog'i kerak. Buning uchun pedagogik kollejlari o'quvchilarga bilim berish bilan birga murakkab tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishlari lozim. Pedagogika kollejlari mazmunida mehnat, ijtimoiy va shaxsiy hayotga tayyorlash, mutaxassislikni egallashga zarur bo'lgan hamkorlik, samimiyat va o'zaro yordam natijasida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilgan. Pedagogika kollejlari shaxsning shakllanishida u o'sib voyaga etadigan shart-sharoitlarida muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarni vatanparvar shaxs bo'lib shakllanishida pedagogika kollejlari mas'uliyati alohida ajralib turadi.

Vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda insonning faoliyati muhim o'rin tutadi. Ya'ni, inson o'z faoliyatida har bir ishni chuqur tahlil va tafakkur qilishi, kuchli xotira va ilmiy iste'dodga ega bo'lish katta ahamiyatga ega. Demak, vatanparvarlikni shakllantirishda unga mos sharoit yaratuvchi muhit va tarbiyaning roli nihoyatda yuksak. Pedagogika kollejlari sharoitida o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishda tanlangan kasbiga nisbatan keng bilimlarni rivojlantirish, ular uchun noma'lum qirralarini ochish, fikrlashi va faol mehnat qobiliyati muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, xozirgi kunda, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi pedagoglari oldida muhim vazifalardan biri vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, o'zini-o'zi mukammallashtirish, iroda va ishonch tuyg'ularini ular ongida shakllantirish hisoblanadi. Shundagina bugungi ta'lim tizimi oldida turgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi muhim masalalar o'z echimini topadi. Bunday faoliyatga tayyorlash avvalo pedagogika kollejlari muassasalari o'qituvchilarining zimmasiga katta mas'uliyatlar yuklaydi.

1.2. Pedagogika kolleji o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirishning asosiy xususiyatlari

Mamlakatimiz taraqqiyotining xozirgi bosqichida kasbiy etuk pedagog kadrlar muhim o'rin tutadi. Ular yosh avlodni aqliy, jismoniy va axloqiy jihatdan barkamol voyaga etkazish bilan jamiyat taraqqiyoti uchun muhim zamin hozirlaydi [14.61]. Shu ma'noda pedagogika kolleji o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini maqsadli shakllantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Pedagogik olimlarimiz to'g'ri ta'kidlashganidek, vatanparvarlik tushunchasi “ Vatanni sevis, u bilan g'ururlanish, ona yurt erishgan muvaffaqiyatlardan quvonish, uning istiqboli uchun qayg'urish kabi his-tuyg'ularda yorqin namoyon bo'ladi” [76].

“Vatanparvarlik vatanga nisbatan sadoqat bilan xizmat qilish, uni dushmanlardan himoya etish, yurt tinchligini asrash, uning ozodligi, mustaqilligi, ravnaqi va farovonligi uchun kurash, milliy manfaatlarni himoya qilishda ko'rinadi [1].

Vatanparvarlik tarbiyasi - ona zaminga muhabbat, uni sevis, e'zozlash, vatan ravnaqiga har bir fuqaroning o'z hissasini qo'shishga erishishi. Vatanparvarlik – ona Vatan, mustaqil O'zbekiston tushunchalarini o'z ongiga singdirish va unga sodiq bo'lishga erishish [48].

Vatanparvarlik tarbiyasi - o'zbek xalqining madaniy meroslari, san'at, me'morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, uning tarixi va bugungi kundagi ahamiyatini bilish [30].

Vatanparvarlik tarbiyasi - kishining tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, ulkaga bo'lgan muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir.

Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o'z Vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashagan

hududning dahlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasidir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi [77; 395-b]. Bu yondoshuvdan kelib chiqib, vatanparvarlik tushunchasiga

shunday ta’rif berish mumkin: *“Vatanparvarlik bu xalqimizga, uning an’analariga va madaniyatimizga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda rivojlanishiga hissa qo‘shish, Yurtimizning haqiqiy jonkuyari bo‘lish, insonning o‘z millatiga, onasiga, yoriga, imoniga sodiqligidir”*. Shunday qilib vatanparvarlik aniq muhitda mavjud ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanib boradi. Vatanparvarlik tarbiyasi qolaversa bolaga ona suti, allasi bilan kiradi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi barcha zamonlarda ulug‘lanib kelingan.

Vatanparvarlik tarbiyasi insonning o‘z Vataniga muhabbatini va uni asrashga bo‘lgan intilishini anglatadi. Ota-bobolarimiz, ulug‘ ajdodlarimiz va allomalarimiz Vatanga muhabbat va sadoqatini ifoda etish borasida ajoyib namunalar ko‘rsatganlar. Jumladan, Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nafasiy, Mazjub Namangoniy kabi buyuk mutafakkirlarimiz o‘zlarining taxalluslarini kindik qoni to‘kilgan yurt bilan bog‘lab, uning nomini dunyoga mashhur qilganlari ham bir ibratdir. Ularning barchasi bir necha yillar davomida turli o‘lkalarga borib ma’rifat o‘rganganlar. Ilmda muayyan darajaga etgach, o‘z Vatanlariga qaytib insonlarga ma’rifat ulashgan.

Yurtimiz dovrug‘ini dunyoga taratgan buyuk ajdodimiz Najmiddin Kubroning jasorati Vatanga fidoiylilikning yorqin misoli bo‘la oladi. Bu yurtdoshimiz Vatanga mo‘g‘ullar bosqinidan xabar topib, birinchilardan uning himoyasiga otlanadi.

Najmiddin Kubroning xalq orasidagi obro‘-e’tiborini nazarda tutib, mo‘g‘ullar hukmdori unga shaharni tashlab, o‘zi ixtiyor qilgan tarafga ketishini taklif etadi. O‘z jonini saqlab qolish yo‘lida Vatanini dushmanga topshirishni or deb bilgan alloma bosqinchilarga qarshi jangga kiradi va mardlarcha tig‘ ko‘tarib, lashkarni olga chorlab borayotgan holatda halok bo‘ladi. U tig‘ni shunchalar jon-jahdi bilan ushlagan ediki, boyraqni allomaning qo‘lini kesib ajratib olganlar.

“Vatanni sevmok iymondandir”, degan hikmat bejiz aytilmagan. Demak insonning o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyi, yurti, yor-do‘stlari va yaqinlarini bog‘lovchi Vatanini sevishi, ardoqlashi iymon ifodasidir. Shunday ekan, Vatanga muhabbat qo‘yish, uni ardoqlash, asrash, uning ravnaqi yo‘lida kuch-g‘ayrat sarflash barchaning farzandlik burchidir.

Erkin va fidoyi insonlarga vatanparvar bo‘ladi. Qadimiy turkiy davlatlaridan birining asoschisi Metexon bilan bog‘liq quyidagi voqea ajdodlarimizga xos bo‘lgan ana shu fazilatga misol bo‘la oladi.

Qo‘shni davlatning podshosi turkiylar mamlakatiga hujum qilish uchun bahona qidirgan. Metexon esa urush chiqib, yurtning vayron bo‘lishini istamas edi. Urushqoq qo‘shni dastavval Metexondan juda yaxshi ko‘rgan otini so‘ragan, Metexon noiloj bu talabni bajargan, hech ikkilanmay otini unga bergan. Keyin chiroyli kanizagini so‘ragan. “Men Vatanimni o‘z ishqim o‘g‘risiga xor etmayman”, degan Metexon noiloj bu talabni bajargan. Keyin bosqinchilar hukmdori mamlakatning ekinsiz bir parcha erini so‘ragan. Shunda Metexon quyidagi so‘zlarni aytgan ekan: “Vatan bizning mulkimiz emas. Mozorda yotgan otalarimizning va qiyomatga qadar tug‘ilajak avlodlarimizning bu muborak tuproq ustida haqlari bordir. Vatandan ozgina bo‘lsa ham, bir qarich bo‘lsa ham er bermokka hech kimning salohiyati yo‘q. Bundan buyon urush qilajakmiz”[21].

Demak, Vatan inson uchun muqaddas, uni hech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi, u o‘z-o‘zidan sevilishga, ardoqlanishga va qadrlanishga loyiqdir. Vatanparvarlik tarbiyasi esa Vatan timsollariga hurmat va e‘tiborda namoyon bo‘ladi. Aslida, bu Vatanga muhabbat tuyg‘usining eng yuksak ko‘rinishlaridan biridir.


Shu ma’noda pedagogika kollejlari o‘quvchilarining vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirishda quydagilar muhim o‘rin tutadi.

1. Pedagogik talablar;
2. Aksiologik omillar;
3. Zamonaviy ehtiyojlar.

Pedagogik talablarda layoqat, aksiologik omillarda mahorat va zamonaviy ehtiyojlarda esa malaka birlamchi asos hisoblanadi. Bularning mujassami o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasining shakllanishiga qo'yiladigan talablarni tashkil qiladi. Bu bilan o'qituvchi o'z faoliyatida ijtimoiy bilim va qadriyatlarni taShuvchi jamoa sub'ekti hamda pedagogik faoliyat olib boruvchi individual sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi.

Demokratik jamiyat va bazar iqtisodi sharoitida o'quvchilarning vazifalari kengayishi va buning natijasida mas'uliyatining ortishi kuzatilmoqda. Shu ma'noda o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini zamonaviy ehtiyojlarga javob berishi va ta'lim-tarbiya jarayonida takomillashib borishi zaruriyat bo'lib bormoqda.

Shu sababli hozirgi kunda o'quvchilarga qo'yiladigan talablarga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Chunki ana shunday talablarni qoniqtirish va javob berish maqsadida o'quvchida vatanparvarlik tarbiyasi shakllantiriladi. O'quvchida vatanparvarlik tarbiyasi xususiyatida vatanparvarlik, bilimdonlik va zamonaviylik muhim o'rin tutadi. Bu komponentlarning tuzilmasini quyidagicha belgi



Hozirgi kunda pedagogika kollejlari o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini bunday komponentlar tizimida qabul qilish asoslardan xoli emas. Chunki aynan Vatan, Bilim, va Zamon omillari o'quvchilar faoliyatiga bo'lgan talab va ehtiyojlarga javob beradi. Jumladan, ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda talabaga nisbatan bir qator talablar qo'yilgan yoki ilmiy tadqiqotlarda ko'plab yondashuvlar bayon qilingan. Lekin, ularning barchasi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunida belgilangan talablarda tutashadi.

Bu talablar hozirgi zamon o'quvchilarida ma'naviy, vatanparvar, axloqiy va faoliyat jihatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Shu sababli pedagogik adabiyotlarda turlicha talab qo'yib kelinmoqda. Misol uchun, o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish uchun quyidagi talablarni qo'yishgan.

- 1) ijtimoiy-gumanitar fanlarni chuqur bilishi;
- 2) zamonaviy texnologiyalarni bilish;
- 3) ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish;
- 4) pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish;
- 5) ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalarni tanlay olish;

Bizning nazarimizda bu talablarni bugungi kunda ham o'quvchilarda vatanparvarlikni tarbiyasini shakllantirishga qo'yish mumkin. Chunki vatanparvarlik tarbiyasi jamiyat tomonidan qo'yiladigan ma'naviy, ijtimoiy va kasbiy talablar vositasida shakllantiriladi. Alisher Navoiy tomonidan bayon qilingan bu talablar jamiyatimiz rivojining hosilasi hisoblanadi.

Pedagog olimlarning fikricha, "boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganadi" [18]. Diqqat qilinsa, bunda uch talab aks etgan: 1) psixologik xususiyatlarni hisobga olish; 2) o'qitish; 3) tarbiyalash. Shu ma'noda yuqorida keltirilgan pedagogika kolleji talabalari tarkibi bu talablarga mos ekanligini ta'kidlash joiz. Chunonchi, *etuklik* tarkibini tashkil qiluvchi talablar pedagogik va psixologik, *vatanparvarlik* tarkibi o'qitish hamda *samarali faoliyat* tarkibida esa tarbiyalash talablarini ifodalaydi.

O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko'ra, pedagogikada quyidagi vazifalarning bajarilish asoslarini o'rganadi:

- o'quvchi-yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalash;
- o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish;
- o'quvchilarda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish [15,16].

Bu vazifalar pedagogikaning negizini tashkil qiladi va vatanparvar, axloqiy hamda faoliyat jihatidan etuk kasbiy madaniyatga ega o'quvchilar kutilgan darajada bajara oladi. Albatta, buning uchun maqbul pedagogik texnologiyani yaratish lozim bo'ladi va tadqiqotimiz davomida bu masalaga asosiy e'tibor qaratiladi. Bu o'rinda Respublika pedagogika kollejlari o'quvchilarining vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish buyicha quyidagi imkoniyatlarga ega ekanligini ta'kidlab o'tish joiz:

- 1) kichik mutaxassislarni tayyorlash jahon ta'lim-tarbiya tizimiga mos ravishda pedagogika kollejlari ta'lim vositasida amalga oshirilmoqda;
- 2) o'rta maxsus ta'lim berish jarayoni milliy va jahon pedagogikasi tajribalariga asosan ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlari asosida amalga oshirilmoqda;
- 3) pedagogika kollejlari ta'lim muassasalari jahon talablariga javob beradigan kompyuter va texnik vositalari bilan jihozlangan ;
- 4) o'rta maxsus, kasb-hunar bo'yicha ta'lim berishda o'qitishning eng zamonaviy pedagogik, informatsion va innovatsion texnologiyalariga asoslanilmoqda.

Zero, vatanparvarlik tarbiyasi o'quvchilarning pedagogik talablar, aksiologik omillar va zamonaviy extiyojlarga mos ravishda faoliyat ko'rsatish uchun asos bo'ladi. Shu sababli bu masala bugun dolzarb bo'lib turibdi. Bulung'ur pedagogika kollejida boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida 2015-2016 o'quv yilida olib borilgan pedagogik kuzatishlar Shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasi u qadar qoniqarli holatda emas. Chunki bu jarayon asosan quyidagilar vositasida amalga oshirilmoqda.

1) pedagogik va ijtimoiy-gumanitar turkumlaridagi fanlarni o'qitish jarayonida;

2) "O'zbek adabiyoti" va "Ona tili" darslari tarkibida;

3) ma'naviy-tarbiyaviy ishlar vositasida.

Bu etarli emas, albatta. Natijada o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish ishi ikkinchi rejaga tushib qolmoqda. Misol uchun, ushbu ta'lim muassasasi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs 64 ta o'quvchilarning 48 tasi (13.16 foizi) vatanparvarlik tarbiyasi asoslarini bilmasligi ma'lum bo'ldi. Ular test usulida tuzilgan «Vatanparvarlik tarbiyasi nima?» degan savolning eng noto'g'ri javoblarini belgilashgan. Demak, o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish ishiga maqsadli yondashish bilan ularning vatanparvarligini yanada oshirish mumkin.

Pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish ishiga maqsadli yondashish va bunda muayyan xususiyatlarni hisobga olish kerak bo'ladi. Mazkur masalada avvalo vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik ma'naviy merosda ifodalangan **g'oyaviy ildizlariga** diqqat qilish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik ma'naviy merosimiz g'oyatda keng qamrovli ekanligi ma'lum. Shu sababli bu o'rinda asosiy nuqtalarga e'tiborni qaratish bilan cheklanish mumkin. Mahmud Qashg'ariy (XI asr) "Devonu lug'atit turk" asarida xalq donishmandligining namunchalarini keltirar ekan, xalqimiz tarbiya an'anasida yoshlar vatanparvar bo'lib etishish talabi qo'yilgani diqqatni tortadi. Unga ko'ra, yoshlar vatanparvar va axloqli bo'lishi shart:

Olgil o'g'il mendan o'git, fazilat ol.

Bunda ulug' olim bo'lib, ilmingni yoy (15; 62-b)

Demak, yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi bilim va axloq bilan etuklikka erishadi. Bunda u bilim vositasida ta'lim beradi (o'qish, yozish va hisobni o'rgatadi), axloq vositasida esa tarbiyalaydi (insoniy fazilatlarga odatlantiradi).

Pedagogik ma'naviy merosimizdagi vatanparvarlikka doir bunday tajribalar bo'lajak mutaxassislarda dars jarayonida va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar vositasida

vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda muhim g'oyaviy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki bu tarbiyada vatanparvarlik, vatanni sevis, burch va majburiyatlarni anglash, tarbiyalanuvchida ezgulik, saxovatlik, bag'rikenglik, saodatlik, aqllilik va o'zgalarga mehribonlik fazilatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilgan.

Xorij pedagogik tajribasida ham shaxsning vatanparvarligiga doir muhim yondaShuvlar mavjud.

Angliyalik faylasuf-pedagog Jon Lokk (1698-1704) shaxsning vatanparvarligi negiziga "axloqiy tarbiya"ni qo'yadi. Bunda shaxsning vatanparvarligi ezgulik g'oyasiga qat'iy e'tibor berishi kerak, negaki "ezgulik qoniqishni oshirish yoki kamaytirish, zo'rovonlik zaiflashtirish va yovuzlikni cheklash xususiyatiga ega" [12;147-148-b]. Lokk axloqiy tarbiya jarayonida vatanparvarlikni rivojlantirishga ko'proq e'tiborni qaratadi.

E'tibor berilsa, faylasuf-pedagogning axloqiy tarbiya tezisida vatanparvarlik, ezgulik, aqllilik va e'tiqodlik tamoyillari ilk rejada turadi, bu tamoyillar vositasida uning fikricha, "oliyjanob shaxs"ni (jentelmen) voyaga etkazish mumkin.

Olmon pedagogi Iogann Genrix Pestalotssining (1749-1827) qarashlarida vatanparvarlik tuyg'usi negizi sifatida "odamlarga muhabbatli bo'lish" g'oyasi ilgari surilgan [40; 331-b]. Unga ko'ra, shaxs vatanparvar bo'lish bilan birga odamlarga muhabbatli bo'lish kerakligini uqtiradi. Shu sababli uning shaxsga nisbatan cheksiz mehru-muhabbati va tarbiya uchun barcha narsaga tayyor turish xislati bo'lishi kerak [40; 332-b].

Sharqda qadim-qadimdan vatanparvarlik masalalariga katta mas'uliyat bilan yondashilgan. Uning madaniy-ma'rifiy jihatlariga, vatanparvarligiga alohida e'tibor bilan qaralgan. Chunki, ularning ichki dunyosi, hayotiy tamoyillari jamiyat siyosiy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatishi tajribadan ma'lum.

Haqiqatan ham, insoniyat paydo bo'lgan davrdan bugunga qadar Vatan, vatanparvarlik, vatanparvarlik tarbiyasi kishilar orasida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Chunki u inson tuyg'ularining yuqori bosqich mezoni, buyukligi ramzidir. O'rta Osiyo xalqlari vatanparvarlik bo'yicha boy tarixga ega.

Vatanparvarlik, vatanparvarlik tarbiyasiga oid fikrlar qadimgi bitiklarida va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'g'itlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida keng o'rin berilgan. Afsuski, yoshlarimiz o'z xalqining vatanparvarlik taraqqiyotining ko'zgusi bo'lgan vatanparvarlik tuyg'ulari haqida to'liq ma'lumotga ega emaslar.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida vatanparvarlik haqida gapirib: "- millatidai qati nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, vatanparvarlik tuyg'ulariga, mehnatsevarlik, bilimga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlardir"[13], - deb ta'kidlab o'tgan edi. Shuning uchun ham ularni vatanparvar, vatan tuyg'usi jo'sh urgan kishilar deyilgan. Hikoyatlar va rivoyatlarda asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan vatanparvarlik tuyg'ulari Navoiy, Bobur, Forobiy singari buyuk allomalar vatanparvarlik haqidagi qo'plab fiqr-mulohazalari bugungi kunda ham har bir inson uchun qadr-qimmatini yo'qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur vatanparvar, vatanparvar tuyg'usi shakllangan hukmdor bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qymagan, balki etti o'lchab bir kesgan.

Amir Temur singari jahon saltanatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan buyuk allomalarning vatanparvarlik haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. "O'g'illarim! Millatning ulug' martabasini, saodatini saklamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting [27].

Amir Temurning bu vasiyatlarida o'z xalqiga sodiqligini, millatini ulug'ligini, kamtarin, adolat va ozodlik uchun kurashuvchan vatanparvar bo'lganligini ko'rish mumkin.

Zero, har bir kishining o‘z tug‘ilgan eri, o‘tib-ulg‘aygan yurti bor. Turli sabablarga ko‘ra Vatanidan uzoqda yashashga majbur yurtdoshimizning o‘z kindik qoni to‘kilgan yurtiga talpinib yashagani, Vatan sog‘inchi bilan o‘rtangani ham Shundan. Hind zaminida ulkan davlat barpo etgan, ilmu fan, adabiyot va sa’antda o‘chmas iz qoldirgan shoh Boburning Andijondan keladigan har bir xabarga mushtoq bo‘lgani, Vatandan keltirgan mevalarni ko‘rganida, yosh bola kabi o‘zini tutaolmay yig‘lagani ham shundan. U o‘z davrining yirik va qudratli davlatlaridan biri – Hindistondan mamlakat hukmdori bo‘laturib, bir umr Andijonni, so‘lim Farg‘onani, bobolaridan meros Samarqandni qo‘msab o‘tdi. Ijodining salmoqli qismini Vatan sog‘inchiga bag‘ishladi. Inson yuragini larzaga soluvchi quyidagi o‘tli misralar ham ana Shu tuyg‘ularning ifodasi natijasida bitilgani Shubhasiz:

Ko‘pdin berikim yoru diyorim yo‘qtur,

Bir lahzavu bir nafas qarorim yo‘tur.

Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,

Lekin borurimda ixtiyorim yuqtur.

Yorkentda mehribon shogirdlari va muxlislari orasida yashaganiga qaramay, Furqatning o‘zi haqida “g‘urbatda Furqat” deb yozgani, ya’ni vatandan judolikda o‘rtangani barchamizga ma’lum. Istibdod darida Vatanni tark etishga majbur bo‘lgan va istiqlol sharofati natijasida Yurtga qaytish, uning jamolidan bahraman bo‘lish imkoniga ega bo‘lgan vatandoshlarimizning sevinchli ko‘z yoshlarida ham, xorijda yashab Vatan tuprog‘iga bosh qo‘yishdan bebahra bo‘lganlar armonida ham ana Shu tuyg‘u ifodalangan.

Shunday ekan, Vatan halqning o‘tmishi, buguni va kelajagi mujassamlashgan yurtdir. Qanchalik go‘zal va obod bo‘lmasin, begona yurt Vatan bo‘lolmaydi.

Shu jihatdan buyuk allomalar ham, xalqning o‘zi ham, tuprog‘i ham, kelajagi ham talaba uchun buyukdir. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”, “Bu aziz Vatan barchamizniki” deganlarida yurtboshimiz ming karra haqdirlar. Hammamizning bu Vatanga huquqimiz ham tengdir. Uni obod, elni ozod, erkin ko‘rmoq, Shu yo‘lda elib-yugirmoq, fikrlamoq, yashamoqning o‘zi bir baxtdir.

Hazrat Alisher Navoiyning yetti yoshdan yetmish yoshgacha ma'lum bo'lgan ruboiysini yodga olaylik:

G'urbatda g'arib shodumon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish,
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikondek oshiyon bo'lmas emish.

Bo' o'lmas satrlar yuragimizga jo bo'lib ketgan. Nega bulbulga oltin qafas tikondek oshiyon bo'la olmaydi? Ha, Vatan ham qanday bo'lishidan qat'iy nazar muqaddas ashyondir.

Vatan hissi - uning xalqini sevmok, hurmat qilmoq, qadriga etmoq va e'tirof etmoq demak. Vatan bu - xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Bu tuyg'uning umri boqiydir. Bular talabalarda vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning asosini tashkil etadi.

Ulug' mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy o'z tasavvuridagi komil inson timsoli bo'lmish Farhodga bergan tarifini esga olaylik. "O'zi poku so'zi poku ko'zi pok...".

Shu nuqtai nazardan talabalarni Markaziy Osiyo mutafakkirlarining vatanparvarlik to'g'risidagi qarashlari bilan tanishtirish, ularning asarlaridagi vatanparvarlik g'oyalarini o'rganish muhim hisoblanadi. Shunday ekan pedagogika kollejlari o'quvchilarini Alisher Navoiy ijodini vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'lab tushuntirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Shu paytgacha Alisher Navoiy (1441-1501) "o'zbek adabiy tili va adabiyotining asoschisi" deb kelganmiz. Bugun baralla aytish mumkinki, Navoiy o'zbek milliy g'oyasining ham buyuk asoschisi sifatida maydonga chiqqan. chunki, Navoiyga qadar hech bir ijodkor milliy g'oyani bu darajada mukammallik bilan targ'ib va talqin etmagan.

Navoiy ijodida vatanparvarlik tarbiyasining ko'rinishlari quyidagicha o'z ifodasini topgan:

Birinchidan, Navoiy yoshlikdan bilim egallab vatanparvar bo'lishni milliy g'oyaning negizi deb bilgan. Buning yorqin misolini "Farhod va Shirin" dostonida

yaratilgan Farhod obrazida ko‘ramiz. Unga ko‘ra, Farhod egallamagan bilim qolmaydi. Shu ma’noda Farhodda Navoiyning yoshligini tasavvur qilamiz. Chunki Navoiyning 8-9 yoshida Farididdin Attorning (vafoti 1221) “Mantiq ut-tayr” dostonini yod olgani va 12 yoshida mashhur shoir Lutfiyni (vafoti 1472) iste’dodi bilan qoyil qoldirgani tarixiy fakt. Uning ijodi bu masalaga oid o‘zbek tilidagi chinakam manba bo‘la oladi.

Ikkinchidan, Navoiy adolatni vatanparvarlikning asosiy tamoyili sifatida tushungan. Buni “Saddi Iskandariy” dostonidagi Iskandar obrazida ko‘ramiz. Unga ko‘ra, Iskandar G‘arbu Sharqda adolat o‘rnatadi, ya’juj-ma’jujga -yovuzlik va zo‘ravonlikka qarshi devor quradi, ya’ni jaholatga to‘siq qo‘yadi. Qoleversa, Navoiyning o‘zi vazir va amir sifatida faoliyat yuritganida adolatga qat’iy rioya qilganligi tillarda doston.

Uchinchidan, Navoiy vatanparvarlikning samarasini bunyodkorlikda ko‘rgan. Xondamirning (XV) “Makorim ul-axloq” asarida yozishicha, u o‘nlab madrasalar (ta’lim muassasalari), shifoxonalar, xonaqohlar (ibodat joylari), yo‘llar, ko‘priklar, maqbaralar qurgan va bog‘lar yaratgan. U shu tariqa mamlakatni rivojlantirishga, obodonlashtirishga e’tiborini qaratgan.

Demak, mutafakkirlarimizning vatanparvarlik g‘oyalari, milliy-ijtimoiy tafakkurning butun dunyoda mashhur nodir namunalari, buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosi, diniy va ilmiy qarashlari, progressiv aholi qatlamlarining dunyoqarashi, xalq orasida keng tarqalgan ezgulik va adolat g‘oyalari, sofko‘ngillik va oliyjanoblik, halollik, jasorat, ma’naviy va jismoniy barkamollik kabilarni talaba-yoshlar ongiga etkazish, ularning bilimlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan o‘quvchilarda adolat, vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda qo‘yidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

Adolat, vatanparvarlik tushunchasi, mohiyati mezonlarini g‘oyat lo‘nda va sodda ta’riflab berish, o‘zbek xalqi tarixida adolat, adolatparvarlik, vatanparvarlikning ahamiyatini tushuntirish;

Amir Temurning adolat haqidagi, Alisher Navoiyning insonparvarlik borasidagi o'g'itlarni o'rganish va ularga hayotda amal qilish;

Amir Temur, Alisher Navoiy haykali oldida mashg'ulotlar o'tkazish;

Amir Temur, Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy joylarda bo'lish;

Temuriylar sulolasini o'rganish.

Milliy pedagogik ma'naviy marosimlarda yangi g'oyalar bayon qilingan jaded ma'rifatparvarlari qarashlarida vatanparvarlikning tarixiy ildizlari o'z ifodasini topgan. Jumladan, Abdulla Qodiriy (1896-1938) "Milliy ziyoli", ya'ni shaxsning o'z davri ilm fani yutuqlari, ma'naviyati va ehtiyojlarini o'zlashtirish g'oyasini ilgari suradi. Uning "O'tgan kunlar" romanidagi Yusufbek hoji timsolida chinakkam milliy-ziyoli tarbiyachi, vatanparvar siymosiga duch kelamiz [71]. Chunki birinchidan, Yusufbek hoji g'oyatda bilimdon va dona shaxs ("O'z xonadonidan hech kimning norizo bo'lib ketishini istamaydi"); ikkinchidan, Otabekdek bilimli, odobli va mustaqil shaxsni tarbiyalab voyaga etkazgan; uchinchidan, u adolatsizlikni qahrli (Azizbek hukmdorning) elga ortiqcha soliq solishiga qarshilik ko'rsatish) va ezgulikka mehrli (oddiy odamlarga munosabati) shaxsdir. Shu ma'noda Yusufbek xoji vatanparvar shaxs sifatida yuksak tarbiyaviy tajribaga ega shaxslarning tipik vakilidir. Bundan kelib chiqadiki, talabalarda vatanparvarlik tuyg'usining yuksak darajadagi tarbiyaviy tajriba ham bo'lish kerak.


Ma'lum bo'ladiki, Sharq va G'arb pedagogik ma'naviy merosida vatanparvarlik tuyg'ulari shaxs sifatleri va imkoniyatlariga bog'liq holda talqin qilingan. Bu yondashuvlarda vatanparvarlik tuyg'ularining negizini vatanparvarlik, insonparvarlik, bunyodkorlik, vatanni sevishtirish tashkil qilishga duch kelamiz.

Pedagogika kollejlari o'quvchilarining vatanparvarlik tuyg'usini ta'lim jarayonida shakllantirishda bunday g'oyalar, fikrlar va yondashuvlarni hisobga olish kerak bo'ladi. Chunki bu bilan ularda kutilgan darajadagi vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Bizning nazarimizda, talabalarda vatanparvarlik tuygʻularini takomillashtirish bir necha keng qamrovli xususiyatlarga ega boʻladi, uning asosiylari quydagilardan iborat:

- aksiologik funktsiya;
- regulyativ funktsiya;
- meʼyoriy funktsiya;
- tarbiyaviy funktsiya.

Unga koʻra, talabalarda axloqiy qadriyatlarni yaratadi va ularni namoyon qiladi; bu ijtimoiy-pedagogik munosabatlarni tartibga soluvchi sifatlar majyasi hisoblanadi; bu madaniyat kasbiy-axloqiy meʼyorlarga qatʼiy amal qilish manbai hisoblanib, tarbiya xususiyatlarni oʻzida mujassam etadi. Bunda tarbiyaviylik, vatanparvarlik va yoʻnaltiruvchanlik xususiyatlari ajralib turadi. Bu xususiyatlar sxemasiga eʼtibor bering:



Diqqat qilinsa, bu xususiyatlar jamiyat ehtiyojlari va talablarini oʻzida mujassam etadi. Shu sababli ularni pedagogika kolleji talabalarida shakllantirish pedagogik vazifalardan biridir.

Bir qarashda mazkur xususiyatlar ideal tuyuladi. Aslida unday emas. Chunki tabiatan har bir kishida tarbiyaviylik, vatanparvarlik, yoʻnaltiruvchanlik

xususiyatlari va ularni tashkil qiluvchi sifat komponentlar bo‘ladi. Buning misolini katta yoshli kishilarning kichik yoshlarga nisbatan munosabatida ko‘rish mumkin. Katta yoshdagi kishilar kichik yoshli bolalarga tarbiyaviy, vatanparvarlik va yo‘naltiruvchanlik jihatidan tabiiy munosabatda bo‘ladi. Qolaversa, pedagogika kolleji ta‘lim jarayonida ta‘lim olayotgan talabalar bu bosqichga qadar umumta‘limini olgan, ularda bu xususiyatlar muayyan darajada shakllangan bo‘ladi. Shu ma’noda mazkur xususiyatlarni talabalarda rivojlantirish yo‘lidan borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday qilib pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg‘ulari o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Mazkur masalada tahlillarni quydagicha umumlashtirish mumkin:

- talabalar vatanparvarlik tuyg‘usining Sharq va G‘arb pedagogik ma’naviy merosidagi ildizlarida vatanparvarlik, bunyodkorlik, insonparvarlik, vatanni sevish jihatlari uyg‘unligi ustuvor hisoblanadi;

- talabalar vatanparvarlik tuysusida tarbiyaviylik, vatanparvarlik va yo‘naltiruvchanlik xususiyatlari ustuvor bo‘ladi;

- talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishni tashkil qilishda mazkur masalaga doir pedagogik tajribalarga tayanish va ulardagi mavjud xususiyatlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

- mustaqil O‘zbekistonning iqtisodiy, ma’naviy - siyosiy yo‘nalishlari adolat, vatanparvarlik tamoyillari asosida amalga oshiri-layotganligini o‘quvchilar ongiga etkazish;

O‘zbekistonda huquqiy va adolatli, insonparvar jamiyat qurilayotganligini dars mashg‘ulotlarida ifoda etish;

O‘zbekistonning mustaqilligini mustaxkamlashning ma’naviy axloqiy negizlari hisoblangan umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, xalqimizning ma’naviy merosini tiklash va rivojlantirish, vatanpar-varlik kabilar tushunchalarni shakllantirish asosida adolatparvarlik, insonparvarligini rivojlantirish;

O‘zbekiston Prezidentining adolatli, insonparvar jamiyat qurish sohasida olib borayotgan ishlarini misollar asosida ko‘rsatish;

O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, porloq istiqbolimiz poydevorini o'rnatish uchun xizmat qilishiga ishontirish.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga bo'yalayotgan bugungi kunda chet elda o'qiyotgan yoshlar haqida misollar keltirish, bir necha tillarni biladigan o'quvchi yoshlarni tarbiyalash va boshqalar.

Albatta bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarni O'zbekiston fuqarosi sifatida adolatli jamiyat qurishda faol ishtirokchisi sifatida kamolga etkazishning asosiy omillari bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogika kolleji ta'lim muassasalarida ma'naviy meroslarimizni o'rganish jarayonidan talabalarda vatanparvarlikni shakllantirishning asosiy tuyg'ulari bo'lgan to'g'rilik, mardlik, vatanparvarlik, jasurlik, odamiylik, mehnatsevarlik kabilarni kamol toptirish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi darsning aniq maqsadini belgilashi, mazmunini ishlab chiqishi va ularni amalga oshirish jarayonida talabalar ongiga vatanparvarlikni singdirish o'quvchini barkamol inson etib tarbiyalash bilan birga milliy istiqlol g'oyasini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, adolatli, insonparvar kishigina el qadrini, erk qadrini to'liq anglaydi. Hamjihatlik bilan o'z kuchini, g'ayratidagi, bilimini adolatparvarlik, vatanparvarlik yo'lida safarbar etadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda pedagogika kollejlari o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari ishlab chiqilgan. Unda vatanparvarlik tushunchasining siyosiy, ma'naviy, pedagogik yo'nalishlari tahlil etilgan. vatanparvarlik tarbiyasi milliy istiqlol g'oyasining asosiy negizi sifatida jamiyat ma'naviyatini rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatilgan. Vatanparvarlik tarbiyasining jamiyatda, mehnatda, oilada, jamoada kamol topishining nazariy va pedagogik yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Vatanparvarlik, vatanparvarlik tarbiyasi to'g'risida pedagog olimlar, mutaxassislarning ilmiy tadqiqot ishlari va qarashlari tahlil qilib berilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida vatanparvarlik tarbiyasining shakllanishi, uning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida ko'rsatilib, milliy g'oyaning tarkib topishida muhim pedagogik muammo ekanligi nazariy jihatdan asoslangan. Shu munosabat bilan vatanparvarlik tarbiyasining xususiyatlari, uning vazifalari, mazmuni va yo'nalishlari ifoda etilgan. Bu sohada respublikamizda olib borilayotgan ishlar ko'rsatilgan.

Ushbu bobda vatanparvarlik tarbiyasining o'quvchilar taqdiridagi o'рни, ayniqsa, uning qadriyat sifatidagi ahamiyati jamiyatimizda demokratik tamoyillarning qaror topishi, vatanparvarlik tarbiyasining milliy istiqlol g'oyasi bilan uzviyligi, millat barqarorligini ko'rsatuvchi haqiqiy fikr ekanligi nazariy jihatdan asoslangan. Vatanparvarlik tarbiyasining jamiyat ma'naviy Yuksalishiga xizmat qilishi, jamiyatni ma'rifat bilan bog'lash, ayniqsa uning xis-hayajon, ichki-kechinmalar bilan yuzaga kelishi, inson qalbi, ruhiyatiga ta'sir etishi, faoliyatni tubdan o'zgartirishi kabi xususiyatlarning pedagogik-psixologik asoslari ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan

2-BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJLARI TALABALARIDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI ASOSLARI

2.1. Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘ularini takomillashtirishning metodologik omillari

O‘zbekistonda barpo etilayotgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida pedagogik kadrlarning o‘rni beqiyosdir. Chunki bu toifa kadrlar yosh avlodni munosib tarbiyalash ishini amalga oshiradi. Shu ma’noda pedagogika kollejlari ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarni talab darajasida rivojlantirish dolzarb masaladir.

Pedagogika kollejlari ta’lim olayotgan bo‘lajak mutaxassislar muayyan darajada shaxs sifatlariga ega. U savodli, vatanparvar, maqsad-muddaosiga ega va qarashlari tartibga tusha boshlagan bo‘lajak mutaxassis. Pedagogika kollejlari ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassis shaxsini shakllantirish va rivojlantirish professional yo‘nalishda kechadi. Bo‘lajak mutaxassislar (talabalar) shaxsini rivojlantirishga doir bir qator yondashuvlar mavjud. Ular orasida milliy modelimiz alohida o‘rin tutadi. Bunda quyidagilar asos hisoblanadi:

- O‘zbekiston Konstitutsiyasi;
- milliy qonunlarimiz;
- davlat ta’lim standartlari;
- prezident asarlari;
- ma’naviy – pedagogik meros;
- pedagog olimlarimizning ilmiy-nazariy qarashlari va hakoza.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqiyosida talabalarga ta’lim-tarbiya, ilm – fan, kasb-hunar o‘rgatish, ularni vatanparvar qilib tarbiyalash masalari dolzarb vazifalardan biri sifatida qarab kelmoqda va bunga zaruriyat sezila boshladi. Jumladan, prezidentimiz asarlari, ma’ruzalari va nutqlarida bo‘lajak mutaxassislar shaxsini rivojlantirishga doir konseptual fikrlar bayon qilib o‘tilgan. Bir o‘rinda Yurtboshimiz deydi: “... Nomzodlarni tanlashda o‘tkaziladigan suhbat jarayonida ularning professional malakasi, bilimi,

tashkilotchiligi, hayotiy tajribasi, insoniy fazilatlari bilan bir qatorda ma'naviy saviyasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yondahuv pedagogika kollejlari talabarlari shaxsini rivojlantirish, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida talabarlarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishda qulay va maqbul pedagogik texnologiyaga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun avvalo vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishning metodologik omillarini aniqlab olish kerak bo'ladi.

“Metodologiya”-bu tadqiqotning nazariy va amaliy asoslarini tashkil etish tamoyillari va usullari tizimi”dir [76;614]. Shu jihatdan pedagogika kollejlari talabarlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish metodologiyasi deganda pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida mazkur masalaning pedagogik, psixologik va didaktik asoslari, tamoyillari hamda usullarini nazarda tutamiz. Masalaning bunday qo'yilishi talabarlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik texnologiyasini ilmiy asoslaydi. Ularni bu o'rinda alohida sharhlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

1. Pedagogik asoslar. Talabarlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning metodologik omilida pedagogik asos tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, u jamiyatimizda milliy g'oya, ta'lim-tarbiyaning rasmiy hujjatlari va pedagogik merosga tayanadi. Masalaning bunday qo'yilishi bugungi kun talablariga mosdir. Negaki talabarlarda biz tomonimizdan vatanparvarlik tuyg'ulari komponentlari sifatida belgilangan etuklik, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy faollik ana Shu uch tayanch asosida shakllantiriladi. Bunda milliy g'oyaning asosiy tamoyillari ustuvor g'oya, ta'lim-tarbiyaga oid rasmiy xujjatlar huquqiy zamin va pedagogik meros birlamchi asos hisoblanadi. Misol uchun, milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri vatan ravnaqi tinchlik, omonlik, vatanparvarlikni ta'minlashi hammaga ma'lum. Shu ma'noda talabarlarda vatanparvarlik, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan tarbiyalanmasa komil inson bo'la olmaydi. Ta'lim-tarbiyaga

oid rasmiy hujjatlar va pedagogik merosda ham shaxsni komil inson sifatida voyaga etkazishning huquqiy hamda tarbiyaviy asoslari o'z ifodasini topgan.

Zero, maqsadli tarbiya bermasdan talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirib bo'lmaydi. Bunday tarbiya pedagogika kollejlari ta'limida nazariy va amaliy uyg'unlikka ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Fanlar nazariy bilim bersa, tarbiyaviy jarayon va pedagogik amaliyot amaliy ko'nikma hosil qiladi. Diqqat qilinsa, bu o'rinda tarbiya tushunchasi keng qamrovli tus oladi va u butun pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida uzluksiz davom etadi.

Talabalarining vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda pedagogik asos tarbiya metodologiyasini berish lozim. Bizning nazarimizda, bunda vatanparvarlik, xalqparvarlik, o'z vataniga muhabbatini asrab-avaylashi, vatanni sevishi, u bilan g'ururlanish, istiqboli uchun qayg'urish, vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, uni dushmanlardan himoya etish, yurt tinchligini asrash, uning ozodligi, mustaqilligi, ravnaqi va farovonligi uchun kurashish, milliy manfaatlarni himoya qilish kabi his-tuyg'ularni amaliy shakllantirish masalasiga diqqat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Psixologik tamoyillar. Talabalarining vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning metodologik omilida psixologik tamoyillar ko'niktirish harakteriga ega bo'ladi. Bunda talabalar pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida vatan, vatanparvarlik, vatanni sevish tuyg'ularini tarkib toptirishda etuklik, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy faollikni egallashga ma'naviy, ruhiy jihatdan ko'niktirilishi kerak, u ham pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida uzluksiz kechadi.

Biz bu o'rinda talabalarining vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning psixologik tamoyillarini belgilashda mashhur psixolog J.Piaje tomonidan asoslab berishgan va ko'pchilik tomonidan psixologik talabalardan unumli foydalanish mumkin,-degan fikrdamiz. Bu tamoyillar J.Bruner tomonidan quydagicha umumiyashtirilgan;

1) psixologik ko'niktirish mantiqli bo'lish va hayotiylikka zid bo'lmasligi kerak;

- 2) u vaqtni tejash harakatida bo‘lish shart;
- 3) u ko‘p qamrovli va aniq mo‘ljalli bo‘lishi darkor;
- 4) u ta’lim-tarbiya oluvchilarga kuchli turtki bera olishi lozim;
- 5) u rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak [38;76-b].

Bu yondoshuvdan kelib chiqadigan bo‘lsa, talabalarda vatanparvarlik, vatanni sevishtirish, uni asrab-avaylashi, ravnaqi va mustaqilligi tushunchalarini tarkib toptirishda etuklik, ma’naviy barkamollik va ijtimoiy faollikni egallashi uchun aniq va real vaziyatlar asosida ko‘niktirilishi maqsadga muvofiqdir. Shu ma’noda talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning psixologik tamoyillari da’vat qiluvchi va moslashtiruvchi xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Buning ma’nosi Shuki, etuklik, ma’naviy barkamollik va ijtimoiy faollik eng avvalo ma’naviy-ruxiy jihatdan ko‘nikish, intilish va moslashish bilan egallanadigan holatlardir (darajalardir). Buning natijasida pedagogika kolleji talabalari vatanparvarlik tuyg‘ularining el-yurt tashvishi va manfaatlarini bilan hamohangligi, insonning komoli Vatanning yuksalishi bilan bog‘liqligi, bevatanlik, el yurtidan judolik so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan yo‘qotish ekanligini anglab etishi mumkin.


3. Didaktik usullar. Talabalarining vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning metodologik omilida didaktik usullar tayyorlash xarakterida bo‘ladi. Bunda o‘qitishning eng zamonaviy metodlari va shart-sharoitlariga asoslanib, samaraga erishish maqsadga muvofiqdir.

a) Pedagogik omillar didaktikaning asosiy turkumlari sifatida o‘qitish, o‘rgatish, bilim berish, ko‘nikma hosil qilish va ularni turli shakllarda tashkil qilib, ta’lim natijasiga erishishni ko‘rsatishadi [76].

b) Shu jihatdan pedagogika kollejlari ta’lim jarayonida talabalarining vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish o‘qitish vositasida ta’lim natijasiga erishiga asoslanish kerak. Bunda mutaxassislik va ijtimoiy-gumanitar fanlarni chuqur o‘qitish bilan ma’naviy-ma’rifiy ta’lim berish vositasi orqali ma’naviy barkamollikni va mustaqil faoliyatga o‘rgatish bilan ijtimoiy faollikni talabalarda hosil qilish mumkin.

Vatanparvarlikda o'qitish, anglatish, tushuntirish, bildirish va tushunchaga ega bo'lish bilan shakllantiriladi. Aks holda vatanparvarlikka ega bo'linmaydi.

Zero mazkur qayd etilganlarni sxemada quydagicha tasavvur qilish mumkin



Pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida talabalarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning metodologik omillarini belgilashda uning funksional jihatlari hisobga olish lozim bo'ladi. Pedagogika kollejlari talabalarida shakllanishi lozim bo'lgan vatanparvarlik tuyg'ulari kelgusi faoliyatda quydagi muhim vazifalarni bajarishi bilan ahamiyatga ega:

- vatanparvarlik tuyg'ulari asosida yosh avlodga milliy madaniy qadriyatlarni etkazish;
- vatanparvarlik tuyg'ulari sifatlari, fazilatlari va xislatlarini keng targ'ib qilish, bu masalalarda ibrat ko'rsatish;
- o'qituvchining vatanparvarlik tuyg'usi nafaqat yosh avlod uchun, balki butun jamiyat a'zolari uchun muhim ko'rsatkich vazifasini bajaradi;
- o'qituvchining vatanparvarlik tuyg'ulari jamiyatda asosan tarbiyaviy vazifani bajarish bilan diqqatga sazovor.

Mazkur masalalar talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda layoqatlik, mahoratlik va malakalilik masalasiga diqqat qilishni taqozo etadi.

Pedagogik layoqat ta'lim-tarbiya vositasida yosh avlod qobiliyatini ro'yobga chiqarishda namoyon bo'ladi [76 ; 242-b]. Shu jihatdan talabalarda layoqatini rivojlantirishda quyidagilar muhim o'rin tutadi.

- 1) talabaning qiziqishini aniqlash va uni to'g'ri yo'naltirish;
- 2) talabaga kerakli ma'lumotlar, adabiyotlar va vositalarni topishida yordam berish;
- 3) talabaning yutuq va kamchiliklarini kuzatib borib, korreksiyalash ishlarini amalga oshirish;
- 4) talabani shaxs sifatida rag'batlantirish.

Bu bilan kasbiy layoqatni kutilgan darajada rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Pedagogik mahorat talabaning ta'lim-tarbiya jarayonida tajriba vositasida egallaniladigan xususiyatidir [76; 304-b]. Talabalar kasbiy mahorati quydagi jihatlari bilan rivojlantirishga ehtiyoj sezadi:

- 1) kasb sirlarini chuqur o'rgatish, unda ko'nikmalar hosil qilish;

- 2) o'z kasbi bo'yicha layoqatlaridan unumli foydalana olishni bilish;
- 3) o'z kasbi bo'yicha individual ijodkorlikka ega bo'lish;
- 4) o'z kasbi vazifasini bajarishda ibrat ko'rsatish.

Pedagogika kollejlari talabalarida kasbiy mahoratini rivojlantirish ilmiy va ijodiy harakterga ega bo'ladi.

Pedagogik malaka talabaning ta'lim-tarbiya jarayoni kasbiy layoqat va kasbiy mahoratni amalga oshirishga ko'nikishidir [76;257-b]. Shu ma'noda talabalarda kasbiy mahoratni hosil qilishda quydagilar muhim hisoblanadi:

- 1) kasb asoslarini tizimli va uzviy o'rgatib borish;
- 2) mustaqil izlanishning samarali yo'llari bilan tanishtirish;
- 3) ko'proq amaliy faoliyatga qiziqtirish;
- 4) talaba xatti-harakatlarini tartibga solib turish.

Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda birinchidan, o'z o'zini boshqarishga ko'nikish; ikkinchidan, vatanparvarlik bilimlarni egallash; uchinchidan, pedagogik layoqatlik va pedagogik mahoratlikni takomillashtirish; to'rtinchidan, kelgusi faoliti uchun texnologiyalarni o'zlashtirish vazifasini bajaradi.

Zero, bular talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning metodologik asoslari yaratiladi. Bu ish ta'lim-tarbiya nuqtai nazardan amalga oshiriladi va u quydagi jarayonda kechadi:

- mutaxassislik fanlarini chuqur o'qitish;
- ijtimoiy-gumanitar va tarbiyaviy fanlarni integratsion asosda o'qitish;
- ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarini maqsadli olib borish;
- ustoz-shogird an'analarini qat'iy amal qilish;
- fakultativ imkoniyatlaridan unumli foydalanish;
- talabalarning mustaqil ishlash ko'lamini kengaytirish;
- pedagogik amaliyotni takomillashtirish va h.k.

Shunday qilib pedagogika kollejlari talabalarida ta'lim jarayonida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning metodologik omillari mazkur ishga maqsadli yondashuvni taqozo etadi. Bu esa pedagogika kollejlari o'qitiladigan «

O‘zbek adabiyoti», «Ona tili», « Ma’naviyat asoslari», «Tarbiyaviy ishlar metodikasi», «Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari», «Tasviriy san’at», «Mehnat», «Jismoniy tarbiya» kabi fanlar asosida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, ushbu fanlarni o‘qitish jarayonida talabalar ongida vatanparvarlik tuyg‘ulari, Vatanga muhabbat qo‘yish, uning ravnaqi yo‘lida kuch-g‘ayrat sarflash, tushunchalar, bilimlar haqida muayyan tasavvurni hosil qilish, ma’naviy-axloqiy xatti-harakatlarni o‘zlashtirish, shaxsning ijtimoiy yo‘nalishi haqidagi ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish 1-kursdan 3-kursgacha vatanparvarlik tuyg‘ulari haqidagi bilimlar tasavvurlar va mulohazalar sezilarli darajada boyiydi. Pedagogika kollejlaridagi ta’limning asosiy vazifasi har tomonlama rivojlangan etuk, barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat ekanligi tufayli har bir o‘qituvchi dars jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ulariga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish, bu borada samaradorlikka erishish yo‘lida beriladigan bilimlar muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish asosida ularda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usini kamol toptirishi uchun ijtimoiy-gumanitar fanlari muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, “Ma’naviyat asoslari”, “O‘zbek adabiyoti”, “Ona tili” darslari talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantiribgina qolmay, balki, ularning umummadaniy tafakkurini, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan vatanparvarlikni, vatanparvarlik tuyg‘ularini, vatanni sevishini, yurt tinchligini asrashga bo‘lgan munosabatini rivojlantiradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasida O‘zbekiston xalq qahramoni, shoir Abdulla Oripov davlatimizning xalqimizning insonparvarligini, uning doimo do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon ekanligini g‘urur va iftixor bilan yozgan. Talabalar madhiyani kuylash jarayonida miliy g‘ururni his eta boradi.

Har bir o‘qituvchi talabalarga davlatimiz madhiyasining mohiyati, mazmunini tushuntirish bilan birga uning satrlarida ifodalangan vatanparvarlikka, vatanparvarlik tuyg‘usiga alohida e’tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Chunki,

talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshirishladi.

1. Talabalarda vatanparvarlik, vatanni sevish, unga xizmat qilish, tinchligini asrash hatti-harakatlarini tarbiyalash;
2. Talabalarda xalqparvarlik, do'stlik, to'g'rilik, adolatparvarlik munosabatlarini kamol toptirish;
3. Talabalarda ma'naviy - axloqiy fazilatlarni shakllantirish;
4. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari bo'lgan-Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravrnligi komil inson kabilarni talabalar qalbiga va ongiga singdirish.

Shuning uchun vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda darsning o'рни muhim. Zamonaviy dars faqat o'qitishning metod va formalari bilan cheklanib qolmay, balki ta'lim-tarbiya, rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida birgalikdagi o'zaro bog'liqligini ro'yobga chiqarishni, ijodiy pedagogik tafakkur, pedagogik mahoratni talab qiladi.

O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati davomida milliy istiqlol mafkurasi asosida sog'lom avlod shaxsini shakllantirishga alohida e'tibor beradi. Milliy mafkura, ma'naviyat, ma'rifat haqidagi g'oyalarini chuqur o'rganadi. Buning natijasida ta'lim-tarbiya jarayonida mustaqillik, ma'naviyat, milliy mafkura, Vatan, Vatan tuyg'usi, milliy g'urur va iftixor, o'zlikni anglash, fuqaro, milliy tafakkur, erkinlik, jamiyat va shaxs, odob, xulq - atvor, iffat, iymon - e'tiqod kabi tushunchalarni talabalar ongida rivojlantiriladi. Pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg'usi milliy g'oya asosida shakllantirish mumkinligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot barpo etish. Ta'lim – tarbiya jarayonida talaba ana shu ruhda voyaga etkazish kerak. Chunki ozod va obod Vatan o'z halqining erkin va farovon hayot bilan ta'minlay oladi. Shu sababli “Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari va bunyodkorlik faoliyatining ma'no – mazmunini belgilaydi”[61].

1. *Vatan ravnaqi*. Vatan – inson uchun muqaddas makon va uning baxtu saodatini ta'minlovchi maskandir [61]. Shu sababli bu g'oya milliy g'oyaning ikki asosi g'oyasi sifatida qabul qilingan. Ta'lim – tarbiya jarayonida talabani vatanparvar sifatida voyaga etkazish birlamchi vazifalardan hisoblanadi va ijtimoiy gumanitar fanlarning asosiy mavzularidan biri sifatida qaraladi. Chunki mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) “Bulbulga tikanli gul Vatan sifatida qanchalik aziz bo'lsa, bu dunyoda inson uchun ham Vatan shu qadar muqaddasdir”

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa

Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish.

Shu ma'noda vatanparvar shaxs Vatan ravnaqini ozodlik, obodlik, erkinlik va farovonlik tamoyillariga asosan yuzaga keltiraldi.

2. *Yurt tinchligi* – Milliy g'oyaning mazkur g'oyasi “Yurt tinchligi – taraqqiyot garovi” [61] tamoyiliga asoslanadi. Ta'lim – tarbiya jarayonida talabani tinchlikparvar sifatida voyaga etkazishga e'tibor beriladi. Chunki qalbi va ongida urush, nizo va fojialarning ayanchli oqibatlari to'g'risida tushuncha hosil qilinadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda aynan Yurt tinchligi milliy taraqqiyotga olib kelganligi ta'shantiriladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Tinchlik uchun kurashmoq kerak” deydi [10]. Yosh avlod har qanday holat va sharoitda tinchlik uchun kurashish ruhida voyaga etishi lozim.

3. *Halq farovonligi*. Milliy g'oyaning asosiy g'oyalaridan bo'lga bu g'oya “Halqimizga munosib turmush sharoiti yaratib berish”ga asoslanadi [61]. Bunda ta'lim – tarbiya jarayoni va uni amalga oshiruvchilar “Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish keng aholi qatlamlarining islohotlar mohiyatini anglab etishi va uning faol ishtirokchisiga aylantirish” [61] vazifasini bajaradi. Aynan maqsadni ta'lim – tarbiya xalq farovonligini yuzaga keltirishning manbaidir.

Zero, e'tibor berilsa, milliy g'oyaning asosiy g'oyalari bo'lgan Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi g'oyalarida ta'lim – tarbiya jarayoni uchun zarur bo'lgan quyidagilar mujassam bo'lgan: vatanparvarlik, taraqqiyot, yurtsevarlik,

tinchlikparvarlik, xalqparvarlik va farovonlik. Bu qadriyatlar ta'lim – tarbiya jarayonida shaxs qalbi va o'ngiga yuksak darajada singdirilishi kerak.

O'qituvchi talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirib borish shaxsda jamiyat ehtiyojlariga mos xislatlarini tarkib toptirishga asoslanadi. Bunda quyidagilar katta ahamiyatga ega:

- jamiyat talablariga mos xulq-atvor qoidalari va tajribalarini egallash;
- o'z insoniy fazilatlarini rivojlantirib borish va bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishni o'rganish;
- o'z manfaatlarini o'zgalar manfaatlari bilan uyg'unlashtirish malakasini egallash;
- tinchliksevarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va ijtimoiy hamkorlikda tashabbuskor bo'lish.

Pedagogika kollejlari talaba shaxsini fuqaroviy jihatdan rivojlantirib borish, ularni jamiyat buyurtmasini bajaruvchilar safatida voyaga etkazishga asoslanadi. Bunda quyidagilar muhimdir:

- ijtimoiy xayot asoslarini o'zlashtirish;
- muhim xayotiy pozitsiyani egallash;
- professional faoliyatda ijtimoiy faol bo'lish;
- tarbiya ishi nazariyasi, metodologiyasi va texnologiyasini chuqur egallash.

Zero, Pedagogika kollejlari talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirib borishning yangi va zamonaviy texnologiyalarga asosan ish olib borishni taqozo etadi.

Shunday qilib, pedagogika kollejlari talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini aqliy, axloqiy va fuqaroviy yo'nalishlari bugungi kun talablariga mos asoslardir. Talabalarga talim-tarbiya berishda ularni birlamchi bilish bizningcha, ular shaxsini kutilgan darajada etuklashtirish imkonini beradi. Ta'kidlanganlarni quydagicha umumlashtirish mumkin:

- pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida talabalarning vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishning metodologik omillari Prezidentning ta'lim–

tarbiyaga oid qarashlariga, ta'lim-tarbiyaga oid rasmiy hujjatlarga, ilg'or pedagogik ta'limotlarga asoslanadi;

-bu masalada pedagogik (tarbiyaviy),psixologik va didaktik asoslar, tamoyillar va usullarning zamonaviy darajasiga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi;

- talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, o'qitiladigan fanlar asos bo'luvchi omillardan unumli foydalanish kutilgan samarani beradi.

2.2. Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik texnologiyasi

O'zbekiston pedagogika kollejlari muassasalarida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda vatanparvarlik tuyg'usining mazmunini takomillashtirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirib borish muhimdir. Shu ma'noda pedagogika kolleji talabalarining vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash *mazmuniga pedagogik texnologiyalar asosida yondoshish* hal qilishini lozim bo'lgan muammolardan biridir. Mazkur masala quyidagi jihatlari bilan dolzarb hisoblanadi:


-talabalarni vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda milliy g'oyaga asoslanish va bunda o'qitish mazmunini kuchaytirish;

-o'qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlarning mavzularini bugungi kun talabalaridan kelib chiqib takomillashtirib borish;

-ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli tashkil qilish;

-talaba shaxsining ijtimoiy etukligini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish.

Kollej talabalarida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda pedagogik texnologiyalar ta'kidlangan muammolarni hal qilish uchun tezkor va qulay yondaShuvlarni taqdim qiladi. Shu ma'noda quyidagi pedagogik ta'sirlar talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda muhim omil vazifasini bajaradi:



Ushbu pedagogik texnologiya ta'sir vositalarining mazmuni quyidagicha idrok etiladi:

1. *G'oyaviylik.* Pedagogik innovatsion texnologiya vositalari yangi g'oyalarni izchil va uzviy holda muddoom taqdim qilib boradi. Misol uchun, bugungi kunda jahon innovatsion ta'limida umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi g'oyasi ilgari surilmoqda. 2011 yil 11 sentyabrida AQSHda ro'y bergan terroristik harakatlardan keyin ana Shu g'oya tanlandi. Bunga qadar ta'limda demokratik tamoyillar ustuvor hisoblanar edi (71; 18-b).

2. *Milliylik.* Pedagogik innovatsion vositalarida samaradorlik bosh maqsad bo'lgani uchun tarbiyaviy jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday vositani qabul qiladi. Shu ma'noda milliylik va uning vositasida tarbiya samaradorligini oshirish nazarda tutadi.

3. *Axloqiylik.* Pedagogik innovatsion vositalarning xalqaro miqiyosda qabul qilinishi asoslaridan biri ularning gumanizmga asoslanishidir. Shu jihatdan innovatsion vositalar talabalar axloqini to'g'ri shakllantirishda yondoshuvlar ta'sirini kuchaytiradi.

4. *Ijtimoiylik.* Pedagogik innovatsion vositalar talaba shaxsini kutilgan darajada ijtimoiylashtirish imkonini beradi. Bunda qulaylik va maqbullik asosiy masala hisoblanadi.

5. *Vatanparvarlik.* Pedagogik innovatsion vositalar talaba shaxsini har tomomnlama etuk darajada voyaga etkazish asosida talabalarning maqsad-

muddaosi vatanning taraqqiyotida, uning rivojlanishida har birining amaliy harakatirini va ishida ifodasini topib boradi.

Mazkur pedagogik innovatsion ta'sirlarni quyidagi holatlarda qo'llash mumkin:

A)ma'naviy targ'ibot ishlarida;

B)ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida;

V)talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ishlarida;

G)talabalar ongini maqsadli shakllantirishda.

O'zbekistonda kichik mutaxassislarni tayyorlash va ular vositasida yosh avlodni munosib voyaga etkazish davlat ta'lim siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlanganidek, "Ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish"ga alohida e'tibor berilmoqda [16;15-b]. Shu sababli mustaqillik yillarida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishga doir keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirildi.

Pedagogik texnologiya- ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakllar va usullarda uzatish hamda ularni o'zlashtirish jarayonidir [76]. Pedagogik texnologiya olimlarimiz qayd etishganidek, quyidagi xususiyatlarga ega:

-pedagogik texnologiya ilmiy texnik taraqqiyot va ta'lim texnologiyasining uzviyligini ta'minlaydi;

-rivojlangan davlatlarda (O'zbekistonda ham) pedagogik texnologiyaga ta'lim sohasida bosh vazifa sifatida qaraladi;

-pedagogik texnologiya bevosita tarbiyalanuvchilarni ko'rib, eshitib turgan narsalar orqali ularga fikrlarni etkazish imkoniyatini beradi;

-pedagogik texnologiya keng pedagoglar ommasining ijodiy faoliyat mahsulidir [76;53-55-b].

Shu ma'noda pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida talabalarda vatagnparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Negaki YUNESKOning pedagogik texnologiyaga bergan ta'rifida (1971 yil) ta'kidlanganidek, "Bu texnologiya ta'lim berish va o'zlashtirish usullarini yaratish, qo'llash, ularni yagona tizimga keltirish

yo‘li bilan inson solohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanib, bilimlarni o‘zlashtirishning eng maqbul jarayonidir” [76;402-b]. Biz bu o‘rinda pedagogika kollejlari ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishning quydagi pedagogik texnologiyasini tavsiya qilamiz:

4-chizma

Pedagogika kollejlari ta’lim jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi	Ta’lim bosqichi		o‘qitish	mutaxassislik fanlari -ijtimoiy gumanitar va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoni; ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlari; Fakultativ kurslar; -pedagogik amaliyot.	Kasbiy etuklik
			Tarbiyalash		Ma’naviy barkamollik
			Tayyorlash		ijtimoiy faollik
	Ijodiy bosqich		Mustaqil izlanish		Kasbiy layoqatlik
			Ko‘nikma hosil qilish		Kasbiy mahoratlik
			O‘rganish		Kasbiy malakalik
	O‘zlashtirish bosqichi		O‘zlashtirish		
			Qo‘llash		
			baholash		

E’tiboringizni mazkur pedagogik texnologiyaning tahliliga tortamiz.

1.Ta’lim bosqichi. Pedagogika kollejlari ta’lim jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishning mazkur bosqichi o‘qitish, tarbiyalash va tayyorlash komponentlarini qamrab oladi. Unga ko‘ra, mutaxassislik fanlari va ijtimoiy-gumanitar fanlarni **o‘qitish** jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishning majmui bo‘lish etuklik, ma’naviy barkamollik va ijtimoiy faollik asoslari bilan chuqur tanishtirilishi, tarbiyalash aspektida esa bu sifatlarga ko‘nikma hosil qilinishi va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish jarayonida esa layoqatlik, mahoratlik hamda malakalilikka o‘rgatiladi. Asosiy e’tiborni talabalarni o‘qitish, tarbiyalash va tayyorlashning eng qulay texnologiyalariga qaratilishi kerak.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishning ta'lim bosqichlari Yangi texnologik jarayonga tayanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Texnologik jarayon fan va amaliyotni o'zaro bog'lovchi hodisa hisoblanadi. Bu borada N.F.Talzina Shunday deydi: "Pedagogik real jarayonni tashkil qilishdan avval pedagog uni qanday amalga oshirishi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. O'zgacha aytganda, har bir o'qituvchi o'quv jarayonining texnologik asoslarini bilishi shart" [38; 94-b]. Shu ma'noda talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishda o'qitish, tarbiyalash va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish texnologiyasini bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmuani qamrab oladi. Masalan: mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida vatanparvarlik tuyg'usi to'g'risida bilim berish bilan birga talabalarining ma'naviy olamini boyitishga qaratilgan tarbiyaviy choralar va ularda vatanparvarlik tuyg'ularini ta'minlovchi motivatsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jaxatdan talabalarining vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini quydagicha uch vazifani bajarishi kerak;

- 1). Bilim berish;
- 2). Tushuntirish;
- 3). Ko'niktirish.

Bu bilan ta'lim, umuman o'quv jarayoni maqbul darajada kechadi. Vatanparvarlik tuyg'ulari haqidagi bilimlarni egallamasdan shakllanmaydi. Ayni paytda, bilimlarni tushunish, ya'ni ongli ravishda qabul qilish muhimdir. Tushunish malakaga ko'nikishga olib keladi. Shu ma'noda talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradigan ta'lim texnologiyasi tarbiyalash va tayyorlash komponentlarini o'zida mujassam etadi. Kezi kelganda ta'kidlab o'tish lozim, pedagogika kollejlari talabalarining pedagogik ta'lim jarayonidagi pedagogik turkumdagi fanlar dasturlariga vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga doir mavzularni kiritish maqsadga muvofiqdir. Negaki biz 2015-2016 o'quv yilida Jizzax pedagogika kolleji boshlang'ich ta'lim yo'nalishining 2-kurs talabalari o'rtasida "Vatanparvarlik tuyg'ulari tushunchasidan

xabardormisiz?” degan savol bilan so‘rovnoma o‘tkazganimizda 34 talabadan olingan javoblar quydagicha bo‘ldi:

- A). “Ha”-16 %
- B). “Bilaman”-11%
- V). “Eshitganman”-9,5 %
- G). “Yo‘q”- 63 %
- D). “Bilmayman”- 0,5 %

E’tibor berilsa, ijobiy javoblar 36,5 foizni, salbiy javoblar esa 63,5 foizni tashkil qilmoqda. Bu hol talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish masalasiga alohida yondashuvni taqozo etadi. Chunki vatanparvarlik tuyg‘usi pedagogika kolleji talabalari faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi omillardan biridir. Shu ma’noda bizningcha, quydagi choralarni amalga oshirish zaruriyat hisoblanadi.

-pedagogika kollejlari ta’lim jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish;

-mutaxassislik fanlariga vatanparvarlik tuyg‘ulari asoslariga doir mavzular kiritish;

-ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar rejalarida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi tadbirlarni belgilash;

-“Vatanparvarlik asoslari” fakultativ kurslarini tashkil qilish.

Bunday chora-tadbirlar natijasida pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘ulari bo‘yicha tushunchalar hosil qilish va ularda mazkur masala Yuzasidan ko‘nikmalar hosil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Negaki ta’kidlab o‘tilgan masalalar oxir-oqibatda talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usi bo‘yicha ko‘nikmani shakllantirishda ta’lim berishni kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar tadbirkorida vatanparvarlik tuyg‘ulariga oid “zakovat o‘yinlari”, konkurslar, viktorinalar va sinov kechalari o‘tkazish maqsadga muvofiq. Chunki bunday tadbirlarda muvaffaqiyatsiz ishtirok etganlar vatanparvarlik tuyg‘ulari bo‘yicha izlanishga kirishadi. Bu vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga doir eng muxim vositalardan biridir.

Xozirgi zamon taraqqiyotida kompYuter vositasidan foydalanish muxim o‘rin tutadi. O‘zbekistonning barcha ta’lim muassasalari kompyuterlashtirilgan va yagona “Ziyo” ta’lim portaliga ulangan. Shuningdek, yoshlar kompyuter savodxonligiga ega. Bunday holat pedagogika kollejlari ta’lim jarayonida talabalarning vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda kompterli texnologiyadan foydalanishning imkonini beradi. Kompyuterli texnologiyaning quydagi imkoniyatlarga egaligi ma’lum:

- 1). Tasviriylilik va ko‘rgazmalilik;
- 2). Motivatsiya va tezkorlik;
- 3). Qiziquvchanlik va izlanuvchanlik;
- 4). Erkin muloqotlik va vizual nazorat [61].

Shu ma’noda talabalarning vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda kompyuterli texnologiya muhim pedagogik vositalardan hisoblanadi. Mazkur masalada biz quydagi modelni taklif qilamiz:

5-chizma

Model asoslari				
Ma’lumotlar menyusi		Ma’lumotlar bloki		Ko’nikmalar bloki
O‘qitish asoslari banki		Tarbiya metodlari		YOrdamchi ma’lumotlar banki
Ma’lumotlarni to‘plash va saqlash,qayta ishlash va uzatish				
Vatanparvarlikda layoqatlik, mahoratlik va malakalik				

Bu model ikki blokdan iborat; ma’lumotlar bloki va quyilmalar bloki. Ma’lumotlar blokida vatanparvarlik tuyg‘ulari asoslariga doir ma’lumotlar, axborotlar, tavsiyalar, metodlar va yo‘nalishlar o‘qitish, tarbiyalash hamda yordamchi banklarda joylashtiriladi. Ko’nikmalar blokida mazkur ma’lumotni to‘plash saqlash, qayta ishlash va uzatish, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish mazmuni, qo‘yiladigan talablar, mezonlar, professiogramma va amalga

oshiriladigan vazifalar o'z aksini topadi. Buning natijasida talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish qulaylashtiriladi.

Biz bu o'rinda mazkur modelni shakllantirish namunasini keltiramiz.

1.Ma'lumotlar bloki.

A). O'qitish bankiga kiritiladigan bloklar:

- vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga doir dasturlar, tavsiyalar, metodik ko'rsatmalar va adabiyotlar;

- vatanparvarlik tuyg'usi asoslari bo'lgan etuklik, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy faollikning ma'no-mazmuni, tarkibi hamda xususiyatlariga doir sharhlar, izohlar, tavsiyalar va lug'atlar;

- mutaxassisik va ijtimoiy fanlarini o'qitishda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga doir yo'nalishlar, ma'lumotlar va h.k.

B). Tarbiyalash bankiga kiritiladigan ma'lumotlar:

- vatanparvarlik tuyg'ularining ma'naviy barkamollik komponenti bo'yicha tegishli ma'lumotlar;

Tarbiyaviy ishlar shakllari, usullari va vositalari bo'yicha axborotlar majmui;

- vatanparvarlik tuyg'ulariga doir ilg'or tarbiyaviy tajribalar va h.k.

V). yordamchi ma'lumotlar bankiga kiritiladigan manbalar:

- vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga doir tavsiyalar;

- milliy va xorijiy pedagogik tajribalar;

- maqbul texnologiyalar va h.k.

2. Ko'nikmalar bloki.

Bu blokka quydagilar joylashtiriladi:

- layoqat, mahorat va malakani shakllantirish asoslari;

- layoqat, mahorat va malakaning shakllanganlik darajasini aniqlovchi testlar, savollar, tavsiyalar;

- vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha qo'llanmalar va h.k.

Diqqat qilinsa, bu model o'qituvchi va talaba hamkorligiga asoslanadi. Undagi ma'lumotlar Yangilanib borish xususiyatiga ega va eng asosiysi

kompyuterli texnologiya ko'rgazmaliligi bilan muhim ahamiyatga ega. Buning barchasi pedagogika kollejlari talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning ta'lim bosqichida amalga oshiriladi.

2.Ijodiy bosqich. Pedagogika kollejlari talabalarining vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda mustaqil izlanish, ko'nikma hosil qilish va o'rganish jarayoni kechadi. Unga ko'ra, talabalar vatanparvarlik tuyg'ulari bo'yicha **mustaqil izlanishda** tegishli adabiyotlarni o'qishi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirishi kerak, bular natijasida layoqatlik, mahoratlik va malakalik **ko'nikmalarini** egallaydi hamda ilg'or pedagoglardan ibrat olishni o'rganadi.

Ijodiy bosqich vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda talabalarining ijodiy va mustaqil izlanishiga asoslanadi. Bu quydagilar asosida amlaga oshiradi:

- ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari jarayonida;
- mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulotlar vaqtida;
- mustaqil topshiriqlar berish vositasida;
- pedagogik amaliyot davrida;

Bular pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanishining amaliy jihatlarini ta'minlaydi. Bizning nazarimizda, bunda talabalarni muayyan uztozga birikish kutilgan natija beradi. Unda Ustoz vatanparvarlik tuyg'usi bo'yicha o'z shogirdiga tegishli tavsiyalar, ko'rsatmalar va maslahatlar berib boradi. Talabalar duch kelgan muammolarni bartaraf qilishga ko'maklashadi. Buning uchun Ustoz o'z shogirdi "timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur" [1; 61-b]. Shaxs bilan muloqatda kirishiladi, uni konservativ usullar bilan muolaja" qilinmaydi. Bir so'z bilan aytganda, Ustoz va shogird maqsadga erishish yo'lida teng hamkorlik qiladi. Amerikalik mashhur olim K.Klakxon "Ustoz shogirdini ko'zgu sifatida qabul qilishi kerak",-degan edi [35;86-b]. Buning ma'nosi Shuki, Ustoz shogirdida o'zligini ko'rish kerak. Bunda shogird ustoz mehnatining hosilasi hisoblanadi. Bardi-yu shogird nomukammal bo'lsa, bu ustozning "aybi"-dir. Vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda Ustozning ibrat bo'lishi muhim o'rin tutadi. Bunday ibrat bo'lish quydagi uch asosda kechishi kerak:

- 1) shogirdning individual xususiyatlarini hisobga olib munosabatda bo'lish;
- 2) shogirdga aniq va konkret ko'rsatmalar berib borish;
- 3) shogirdi bilan maqsadli va izchil ishlash.

Mazkur asosda yondashish talabarining vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish ishlarini amaliy ta'minlaydi.

Pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning ushbu ijodiy bosqichida ularning mustaqil va individual ishlashga ko'niktirish muhim o'rin tutadi. Ular yangiliklar yaratish, kashfiyot va ixtirolar qilishga da'vat qilinishi kerak. Bu bilan talabalar izlanish, o'rganish va o'zlashtirish ko'nikmasini egallaydi. Vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishida etuklik, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini egallab boradi.

Mazkur bosqichda talabalar ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishga o'rgatilishi kerak. Ilg'or pedagogik tajribalar vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishida namuna bo'lib xizmat qiladi. Negaki bunday tajribalar yuksak darajadagi vatanparvarlik tuyg'usining hosilasidir.

Biz 2016 yil may oyida Samarqand shahridagi pedagogika kolleji boshlang'ich ta'lim pedagogikasi 2-kurs talabalarining har birini ustozlarga biriktirdik va Ustozlar bilan vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha ish olib borish kelishildi. 2016 yil noyabr oyida talabalarda quydagilar kuzatildi.

1) vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish sirlarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borishning kuchayishi;

2) ma'naviy mo'ʻtadillik yuzaga kelishi;

3) mustaqillik va tashabbuskorlikning o'sishi;

4) ustozlar bilan munosabatning chuqurlashuvi;

5) tegishli adabiyotlarni o'qish, ma'lumotlarni topish va o'z ustida ishlashning ortishi;

6) xatti-harakat, yurish-turish, o'zini tutish va hatto kiyinishning ijobiy tomonga o'zgarishi.

Demak, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning ijodiy bosqichida mustaqil izlanish, ko'nikma hosil qilish va o'qib-o'rgatish uchun talabalarga

erkinlik berish, ularni to'g'ri yo'naltirish va tavsiyalar berib borish muhimdir. Bu talabalar bilan individual ishlash vositasida amalga oshadi.

1.O'zlashtirish bosqichi. Pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida bo'lajak kichik mutaxassislarning vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda mazkur bosqich muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, talabalar vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanishi kuzatuv asosida **o'zlashtirganlik** darajasi kuzatib boriladi, ularning o'zlashtirgan ko'nikmalarni xatti-harakatiga qo'llashi kuzatiladi va natijalar **baholab boriladi**. Bunda quydagi shkalaga asoslanish mumkin:

t/r	Vatanparvarlik tuyg'ulari komponentlari	O'zlashtirish darajasi	Qo'llashi	Baho	Kelgusi rejalar
1.	etuklik; -layoqatlik	+		3	*
	- vatanparvarlik tuyg'ularini egallashga intilishi	-		4	0
	-o'z ustida ishlashi	+		5	*
	-biriktirilgan ustozi bilan munosabati	-		2	0
2.	Ma'naviy barkamollik; -mahoratlik	+		3	*
	-ahloqiylik	-		4	0
	-vatanparvarligi	+		5	*
	-xatti-xarakati	-		2	0
3.	Ijtimoiy faolligi; -malakalilik	+		3	*
	-tashabbuskorligi	+		4	0
	-jamoat ishlaridagi ishtiroki	-		5	*
	-o'z faolligini nazorat qilish	+		2	0

Bunda;

+ Ijobiy

-Salbiy

v – talabga javob beradi
> - talabga javob bermaydi.

5 – a'lo

4 – o'rta

3 – qoniqarli

- - Shu tarzda davom etish

0 – intdividul ishlash.

O'zlashtirgich bosqichi ko'proq amaliyot bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli darsdan tashqari mashg'ulotlar pedagogik amaliyot davrida talabalar kuzatuvda bo'lish kerak. Bunday kuzatuv yutuqlarni rag'batlantirish va kamchiliklarni to'g'rilash asosida kechadi.

Zero, mazkur model pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida o'qitish, tarbiyalash va ko'niktirishning uyg'un olib borishga asoslanadi. Bu bilan bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachilarda vatanparvarlik tuyg'uschini shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Pedagogika kolleji ta'lim jarayonida talabalarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish tashkiliy hususiyatga ega bo'lishi kerak. Afsuski, pedagogika kolleji ta'lim jarayonida talabalar vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirish masalasi maxsus nazarda tutilmagan. Shu sababli bu ishni maqsadli amalga oshirish uchun hozirgi fakultativ kurslar tashkil qilish yo'lidan borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada biz nazariy va amaliy masalalarni qamrab olgan "Pedagogika kollejlari ta'lim jarayonitda talabalar vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish" fakultativ kursni ishlab chiqdik va 2015-2016 o'quv yilida uni Bulung'ur pedagogika kolleji Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari o'rtasida sinovdan o'tkazdik. E'tiboringizni ushbu kurs tahliliga tortamiz.

Kurs dasturi mavzulari

T/r	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot
1	Bo'lajak mutaxassis-tarbiyachilarda vatanparvarlik tuyg'ularini	2	2

	takomillashtirish ehtiyojlari		
2	Bo'lajak mutaxassis-tarbiyachilarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishning tarixiy-pedagogik ildizlari	2	2
3	Pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishning metodologik asoslari	2	2
4	Pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishning pedagogik texnologiyasi	4	4
5	Kollej talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishning tashxislari	2	2
Jami:		12	12
Umumiy soatlar:		24 soat	

Dastur tavsifi

1-mavzu: Bo'lajak mutaxassis-tarbiyachilarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish ehtiyojlari

- vatanparvarlik, vatanparvarlik tuyg'usining ma'no-mazmuni, ta'rifi va xususiyatlari;
- vatanparvarlik tuyg'usining talabalarda ta'lim-tarbiya orqali rivojlantirilishi;
- talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish zaruriyati.

Amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriqlar

1. O'zingizda mavjud vatanparvarlik tuyg'ularining ro'yxatini tuzing.
2. Vatanparvarlik tuyg'ularining qaysilarini asosiy deb hisoblaysiz? Ro'xatini tuzing.
3. Tuzgan ro'yxatlaringizni tabiiy va zaruriy hamda amaliy va nazariy guruhlariga ajratib chiqing.

Mashg'ulot oxirida bajarilgan topshiriqlar bo'yicha muhokama qilinadi.

2. Bo'lajak mutaxassis-tarbiyachilarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishning tarixiy-pedagogik ildizlari

-Sharq ma'naviy-pedagogik merosida vatanparvarlik tuyg'usiga doir g'oyalar va qarashlar;

-G'arb pedagogik qarashlarida vatanparvarlik tuyg'usiga oid fikrlar;

-hozirgi zamon pedagogik ta'limotida vatanparvarlik tuyg'ulari asoslari.

Amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriqlar

1. Sharq ma'naviy-pedagogik merosida vatanparvarlik tuyg'usiga doir asosiy g'oyalar bo'yicha ikki sahifadan iborat matn tuzing.

2. G'arb pedagogik qarashlarida ilgari surilgan vatanparvarlik tuyg'usiga oid asosiy g'oyalar ro'yxatini tuzing.

3. Hozirgi zamon pedagogik olimlarining vatanparvarlik tuyg'usi asoslariga doir fikr- mulohazalari bo'yicha suhbat o'tkazing.

3. Mavzu: Pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishning metodologik asoslari

- talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga asos bo'luvchi rasmiy ta'lim hujjatlari;

- davlat ta'lim standartlari- talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiruvchi talablar negizi;

-o'qitish, tarbiyalash va tayyorlash- talabalar vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish poydevori.

Amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriqlar

1. Referat yozing.

2. Referatlar tahlili.

4. Mavzu: Pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishning pedagogik texnologiyasi

- vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga doir pedagogik texnologiya mazmuni;

- pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish mexanizmlari;

- talabalarda vatanparvarlik tuyg'ulari bo'yicha etuklik, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy faollik komponentlari;

- vatanparvarlik tuygʻusining layoqatlilik, mahoratlik va malakalilik sifat belgilari;

- talabalar vatanparvarlik tuygʻusini takomillashtirishning taʼlim berish, ijodiy va oʻzlashtirish bosqichlari;

- talabalarda vatanparvarlik tuygʻusining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari.

Amaliy mashgʻulotlar uchun topshiriqlar

1. Vatanparvarlik tuygʻusini takomillashtirishga doir fikrlaringizni ikki sahifaga yozing.

2. Talabalar vatanparvarlik tuygʻusining pedagogik texnologiyasi asoslarini chizma (sxema) koʻrinishida tasvirlang.

3. Talabalarda vatanparvarlik tuygʻusini takomillashtirish mexanizmlari boʻyicha referatlar tayyorlang.

4. Vatanparvarlik tuygʻusini takomillashtirish toʻgʻrisida suhbat.

5. Mavzu: Kollej talabalarida vatanparvarlik tuygʻularini takomillashtirishning tashxislari

- tashxislarga qoʻyiladigan talablar va mezonlar;

- layoqatlik, mahoratlik va malakalilik- talabalarda vatanparvarlik tuygʻusini bildiruvchi asosiy mezonlar sifatida;

- muddatli va bosqichli ravishda tashxislab borish.

Amaliy mashgʻulotlar uchun topshiriq

Shu mavzu boʻyicha kurs ishi tayyorlatish va uning tahlili.

Mazkur fakultativ kurs dasturi asosida talabalarda vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirish mexanizmini yoʻlga qoʻyish mumkin.

Shunday qilib, pedagogika kollejlari taʼlim jarayonida boʻlajak kichik mutaxassislar, tarbiyachi-pedagoglar vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirishning pedagogik texnologiyasi maqbul va sharotiga mos variantni tanlab olishni taqozo etadi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida talabalar vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishning metodologik omillari masalaning nazariy va amaliy asoslarini qamrab oladi. Shu jihatdan mazkur jarayonda talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning metodologik omillarini, bizning yondashimizga ko'ra, pedagogik, psixologik va didaktik asoslar, tamoyillar hamda usullar tashkil qiladi.

Talabalarining vatanparvarlik tuyg'ulari pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida shakllantirishning metodologik omilida pedagog asoslar, tarbiyaviy, psixologik tamoyillar ko'niktirish va didaktik usullar tayyorlash xarakterida bo'ladi.

Bu metodologik omillar talabalarining kasbiy etuklik, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy faollikni egallashi uchun shart-sharoit, metod va yo'lni ta'sis etadi va vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyalash, ko'niktirish va tayyorlash (o'qitish) bilangina talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish mumkin.

Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini ta'lim jarayonida shakllantirishning pedagogik texnologiyasi ta'lim bosqichi (o'qitish, tarbiyalash, tayyorlash), ijobiy bosqich (mustaqil izlanish, ko'nikma hosil qilish, o'rganish) va o'zlashtirish bosqichidan (o'zlashtirish, qo'llash, baholash) iborat. Bu jarayon mutaxassislik va ijtimoiy-gumanitar fanlarga vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga doir tegishli mavzularni kiritib o'qitish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi tadbirlarni o'tkazish hamda pedagogik amaliyot davrida vatanparvarlik tuyg'ulari ko'nikmalarini egallash bo'yicha talabalarni motivatsiya qilib borish vositasida amalga oshiradi.

3-BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJLARI TALABALARIDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

3.1. Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘ularining pedagogik jihatlarini tashkillashtirishning amaliy jihatlari

Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga tayyorlash ishi ta’lim – tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish bilan bog‘liq hodisadir. Shu ma’noda mazkur masalaning eng muhim jihatlarini idrok qilib olish kerak bo‘ladi.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish uch muhim ahamiyatga ega:

- 1) ijtimoiy;
- 2) pedagogik;
- 3) ma’naviy.

Mazkur masalaning **ijtimoiy ahamiyati** Shundaki, O‘zbekiston ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror rivojlanib bormoqda, bu – vatanparvarlikning hosilasidir; natijada odamlarda vatanparvarlik rivojlanib, vatan ravnaqi, Yurt tinchligi farovonlashib bormoqda. Ayni paytda, O‘zbekiston joylashgan mintaqada terrorism, diniy ekstremizm, giyohvandlik savdosi va radikalizm (ayirmachilik) xavfli saqlanib qolmoqda. Bunday ijobiy va salbiy vaziyatda shaxsning vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Bunda shaxs oilasi, mahallasi, Vatani va insoniyatning tinchligi va farovonligi uchun kurashib yashaydi, o‘z manfaatlarini o‘zgalar manfaatlariga uyg‘unlashtiradi.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish ularning fuqaro sifatida voyaga etishi asoslaridan biridir. Vatanparvarlik tuyg‘ulariga talaba xarakterida Vatandan begonalashish, buzg‘unchilikka moyillik, tug‘ilib o‘sgan Yurt taqdiriga qiziqmaslik, befarqlik, qanoatsizlik kabi illatlar paydo bo‘ladi. Shuningdek, vatanparvarlik tuyg‘usi talaba-shaxsining ijtimoiylashtirish asoslaridan biri hamdir. Unga ko‘ra, pedagogika kolleji talabalari jamiyatimiz ehtiyojlariga moslashtiriladi, ijtimoiy hayotga yo‘naltiriladi va faoliyat malakalari bilan rivojlantiriladi [20].


Talabalarni pedagogik kollejlari ta'lim jarayonida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning **pedagogik ahamiyati** kollejlari ta'lim sifatini chuqurlashtirish, talabalar ta'lim – tarbiyasining samaradorligini oshirish va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini kuchaytirish bilan belgilanadi. Bu masalalar juda muhim ahamiyatga ega. Chunki vatanparvarlik tuyg'usi talabalarning 6-11 yoshli shaxs xulq – atvorini mo'tadillashtiradi va xatti – harakatini me'yorlashtiradi. Bunday talaba vatanparvar, axloqli va faol bo'lib voyaga etadi.

Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish mahoratiga ega bo'lgan o'qituvchi kasbiy faoliyatida samaraga erishadi. U ta'lim – tarbiya bergan shaxs jamiyatning faol a'zosiga aylanadi.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning **ma'naviy ahamiyati** Shundaki, talabalar ongida bo'shliq qoldirmasdan milliy g'oya asosida shakllantirish, ularning keng fikrlashini tarkib toptirish va jamiyat ma'naviy hayoti barqarorligini saqlab borishga erishiladi. Milliy g'oya asosida ongi shakllangan va mustaqil fikrlashga ega bo'lgan pedagogika kolleji talabasi jismoniy imkoniyatlariga mos ma'naviyatli shaxsga aylanadi.

Jamiyat ma'naviy hayotida vatanparvarlik tuyg'ulari shaxsni, guruhlarini va xalqni ahil – totuv va vatanni sevib yashashga yo'naltiradi. E'tibor berilsa, vatanparvarlik tuyg'ularidan talaba, jamiyat va davlat bir xil manfaatdor bo'ladi.

Zero, pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish, bu ishga bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash ijtimoiy, pedagogik va ma'naviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatni tortadi. Kuzatishlar va o'rganishlar Shuni ko'rsatadiki, hech bir talaba vatanparvarlik tuyg'ularini inkor qilmaydi. Ammo, Vatanparvarlik hodisasi tabiatan kurashish, vatanni sevish va harakat qilishni taqozo etadi. Shu ma'noda quyidagi omilga e'tibor bering:



Vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanishining amaliy ahamiyati.

Diqqat qilinsa, bular shaxs uchun muhim motivlarni bajaradi. Shu ma’noda hech kim va hech qachon urushni va istamaydi. Ammo, ba’zi shaxslar omadsizlik, bilimsizlik va axloqiy og‘ish natijasida nizo, buzg‘unchilik, vatandan begonalashish illatlariga uchraydi. Bu tushunchalar shaxsning axloqini buzadi va faoliyatini izdan chiqaradi. Ongi, axloqi va xatti – harakati shakllanishda talabalar nizo, buzg‘unchilik, vatandan begonalashish illatlaridan himoya qilinishi kerak. Bu ishni eng avvalo kollej o‘qituvchisi amalga oshiradi. Chunki ba’zi ota – onalaridan olishda o‘qiyotgan pedagogika kolleji talabalaria boylikka o‘chlik natijasida yovuz niyatli kimsalarning talabaning ongiga nizo, buzg‘unchilik, vatandan begonalashish illatlarini singdirayotganini sezmaydi. Kollej o‘qituvchisi talabaning ongi, axloqi va faoliyatining muhandisi ekanligini unutib bo‘lmaydi. Bularning barchasi pedagogika kollejlari ta’lim jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini takomillashtirishga tayyorlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg‘ularini takomillashtirish borasida amaliy tadbirlarni amalga oshirish maqsadida “Vatanparvarlar klubi» tashkil etilgan bo‘lib, klub faoliyatiga malakali o‘qituvchilar va faol talabalar jalb etilgan. Ular bo‘lajak o‘qituvchilarga vatanparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ulari borasida tushunchalarini berish, ularda vatanparvar to‘g‘risidagi faoliyatni samarali tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish borasida zarur ko‘rsatmalarni berish asosida ularni mustaqil hayotga tayyorlab boradilar.

“Vatanparvarlar klubi” da bo‘lajak mutaxassislar uchun muomala madaniyati, o‘quvchilar bilan muloqotni tashkil etish, tavqim reja tuzish, jurnallarni Yuritish, o‘quv xonalarini jihozlash va mavjud jihozlardan samarali foydalanish, ma’ruza matnlari ustida ishlash, dars tiplari va turlaridan unumli foydalanish, o‘zaro darslarni kuzatish va ularni tahlil qilish, o‘quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublardan foydalanish, uslubiy majmualarni tayyorlash hamda ta’lim-tarbiya jarayonlarini loyihalash kabi mavzularda amaliy tadbirlar uyushtirilib, maxsus ma’ruza, seminar, trening va bahs-munozaralar tashkil etiladi. Mashg‘ulotlar jarayonida talabalar o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quv va tarbiya jarayonini loyihalash, talabalarni uyushtirish, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish, ijodiy layoqatni namoyish eta olish borasida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar.

Tadqiqotni olib borish jarayonida pedagogika kollejlari ta’lim muassasalarida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirishda o‘ziga xos o‘rin tutuvchi bir qator amaliy tadbirlarni tashkil etdik.

“Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish” bosh g‘oyamizning mazmuni.

Sharq mutafakkirlari va tarixiy shaxslarning Vatan ozodligi, yurt tinchligi haqidagi fikrlariga mashg‘ulotning boshlanishida o‘qituvchi “Aqliy hujum” metodi yordamida talabalarni fikrlashga yo‘llaydigan quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

- yaxshi o‘qish uchun nima qilish kerak?

Bunga talabalar quyidagi tarzda javob berishi mumkin:

- ko‘p o‘qish kerak;
- o‘qishga qiziqish bo‘lishi kerak;
- o‘qishni uzluksiz davom ettirish kerak;
- zarur shart-sharoitlar yaratish;
- o‘qishga xohish-istak bo‘lishi lozim;
- o‘qishni to‘g‘ri tashkil etish zarur va h.k.

O‘qituvchi: To‘g‘ri javob berdingiz, endi esa, er yuzida vatanning tinchligini saqlash uchun nima qilish lozimligi haqida o‘ylab ko‘ringlar.

Talabalar javobi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- millatlararo totuvlik bo‘lishi kerak;
- o‘zaro murosada yashash;
- qurol-yarog‘ni yo‘qotish;
- o‘zaro do‘stlikda yashash;
- tinchlik uchun kurashish kerak.

O‘qituvchi: Shunday qilib, sizlar yuqorida ikkita masala bo‘yicha o‘z fikrlaringizni bildirdingiz. Sizlar birinchi masala bo‘yicha fikr, ikkinchi masala bo‘yicha g‘oya berdingiz. Fikr bilan g‘oyani bir-biridan qanday ajratish mumkin?

Bunda o‘qituvchi Yangi dars mazmunini tushuntirganda, yuqoridagi ikkita masala bo‘yicha bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda Yangi mavzuni tushuntiradi.

Demak, vatanparvarlik kishilar o‘rtasidagi eng mas‘uliyatli vazifa ekanligi va u ko‘pchilikning maqsad, manfaatlarini aks ettiradi. Buni yuqorida keltirgan misollardan bilish mumkin. yaxshi o‘qish uchun nima qilish kerak, degan savolga: o‘qishga qiziqish, xohish-istak bo‘lishi, o‘qishni uzluksiz tashkil etish kerak degan fikrlar faqat har bir talabaning shaxsiy manfaatlarini ko‘zlaydi va shaxsiy munosabatni bildiradi. Ikkinchi savolga berilgan javoblarda esa, ko‘pchilikning, jamiyatning maqsad, manfaatlari ifoda etilgan. Chunki, er yuzida tinchlik, totuvlik bo‘lishidan hamma manfaatdor. Shunday qilib, vatanparvarlik jamiyatning orzu-intilishlarini ifoda etadi va ko‘pchilik manfaatlari uchun xizmat qiladi.

Shaxsiy fikrning ijtimoiy maqsadga aylanishida ijtimoiy hayot, voqelik muhim o‘rin tutadi. Masalan, mustaqillikka erishish natijasida tinchlik, vatanparvarlik tushunchalari muhim ahamiyat kasb etdi va bizning ota-bobolarimiz qalbidagi orzu bo‘lgan hamda xalqimizning ozodlikka bo‘lgan intilishi natijasida mustaqillikka erishildi va vatanparvarlik boshqacha kasb etdi.

Mavzuni tushuntirishda yuqorida aytilgan masalalar o'rtasida uzviylik bo'lishiga, yangi mavzuni ana shu uzviylikni davom ettirgan holda bayon etishi lozim. Bu talabalarda o'tilayotgan mavzu haqida bir butun, tizimli tushuncha hosil qilishga, vatan, vatanparvarlik tuyg'ulari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglashga ko'maklashadi. Yangi mavzuni tushuntirishda o'qituvchi yuqorida belgilangan xususiy maqsadlardan kelib chiqqan holda g'oyaning tizimlilik xususiyati, maqsad va manfaatlarni aks ettirishi, o'ziga xos tizim hosil qilishi, birlashtirish, jipslashtirish, uyushtirish orqali tinchlik va farovonlik tushunchalari shakllanadi.

Vatanparvarlik tuyg'ularining tizimlilik xususiyati Shundan iboratki, u o'zaro bog'liq bo'lgan fikrlar, tushuncha va tamoyillarni bir tartibda ketma-ketlikda birlashtirib turadi. Vatanparvarlik, Vatanni sevish, adolatlilik, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi tushunchalar bir-biri bilan ma'no jihatdan o'zaro bog'liq tushunchalardan tarkib topib vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishiga asos soladi. Ikkinchi xususiyati maqsad va manfaatlarni aks ettirishi. Ya'ni, vatanparvar bo'lish uchun u ko'pchilik maqsad, manfaatlariga xizmat qila olishi kerak. Masalan, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi g'oyalari Shu zaminda yashovchi barcha millat vakillarining eng buyuk istagi hisoblanadi, yurtimiz tinch, Vatanimiz obod bo'lsa, unda yashovchi barcha kishilarning orzu-umidlari amalga oshadi. Kishilarning shaxsiy manfaati Vatan manfaati bilan bog'liq. Shuning uchun ham Vatan manfaati shaxsiy manfaatdan ustun turadi. Masalan, yuqoridagi vatan tushunchasini oladigan bo'lsak, hamma o'zining vatani bo'lishidan manfaatdor. Bu tushuncha o'z ortidan barcha xalqni ergashtira oladi. Chunki, hamma vatani bo'lishi tarafdori. Yovuzlik, terrorizm, buzg'unchilik tushunchalari ortidan sog'lom fikrlaydigan kishi ergashmaydi. Chunki, bu tushunchalar odamlarga faqat kulfat keltiradi.

Ko'pchilik talabalar vatanparvarlik deganda jasorat va qag'ramonlikni tushunadi, Bu vatanparvarliknin bir ko'rinishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qat'iy nazar har bir fuqaroning Vatan baxt-saodati, tinchligi

va farovonligi uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, Shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylatirish milliy istiqbol g'oyasining bosh maqsadidir" [2]. Demak, tarixiy xotirani o'stirish, xalqimiz, jonajon mamlakatimizning o'tmishi va kelajagi bilish Vatanni bilishdir. Millatimiz orzu umidlari, intilishlari, an'analari o'z ifodasini topgan merosni o'rganish, mamlakatimiz haqida yoshidan qat'iy nazar, har bir kishi adolatli, vatanparvar, mard va kamtar, samimiy bo'lishi yurt kamoliga munosib hissa qo'shadi. Bu tushunchalarni o'qituvchilar talabalar ongiga jonli misollar asosida tushuntirib, singdirib borishi kerak. Bo' o'rinda vatanparvarlik tuyg'ularining jamiyatning rivojidagi ahamiyati belgilab berilganligini ta'kidlab o'tish joiz va ular quyidagilardan iborat:

1. *Vatanparvarlik*. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 132 millat va elatdan iborat xalqni ikki prinsip asosida birlashtirishni nazarda tutadi: 1) buyuk kelajakni barpo etish; 2) ulug'vor maqsad yo'lida. Bugun mustaqil bo'lganligimizga 25 yil bo'ldi, bugungi hayotimiz 1991 yildagidan tubdan farq qiladi. Demak, yurtga sodiqlik, ona zaminga sadoqat, xalqning ezgu-niyat bilan yashash, ulug' ajdodlarimiz qahramonliklari va olimlar zahmatkash mehnati mahsulining jahonshumul ahamiyati hamda davlat arboblarning yurt ravnaqi, xalq farovonligi, ma'naviyati yuksalishidagi buyuk xizmatlari va shu kabilar orqali singdiriladi;

2. *Vatanni sevish*. Avvalo Vatan tushunchasining mazmun-mohiyati bilan bog'liq bo'lgan tushunchani oydinlashtirib olish zarur. "Vatan" tushunchasi aslida arabcha bo'lib, ona yurt ma'nosini anglatadi. Vatan deganda, insonning tasavvurida dastlab kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan maskan g'aydalanadi. Mamlakatimizning har bir fuqarosi "Vatan baxt-saodati, tinchlik uchun" mas'uliyat sezib yashashga chorlashi kerak. Ammo, Vatan baxt-saodati, tinchlik va farovonlik bu-jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlantirish ekanligi nazarda tutilsa,

masalaning mohiyati ancha chuqur ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki bu o'rinda shaxs, guruh, jamiyat va davlat manfaatlarining mutanosibligi ta'minlanishi kerak. Negaki jamiyatimizda yashayotgan fuqarolar uch omil yuzasidan rang-barang: 1) millat; 2) til; 3) din. Mamlakatimizda bu rang-baranglikni mutanosiblik asosida g'oyaviy birlashtirib, fuqarolarni mas'uliyatga chorlashi kerak edi. Vatanni sevish haqida gap ketar ekan, yana quyidagi holatga e'tiborni qaratish lozim. "O'zbekiston – Vatanim manim" degan g'urur jaranglovchi shior bugungi kunda mamlakatimizda yashovchi turli millat vakillari tilida jaranglab turishining o'zi vatanni sevishdir.

3. *Bunyodkorlik*. Kishida barpo etuvchilik xislatlarining majmui bo'lib, taraqqiyot yo'lidagi g'ayrat-shijoat numunasini ko'rsata oladigan xalq baxt-soadati yo'lidagi harakatlar jarayoni. Bunyodkorlik kishilarning ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi faoliyati. Yangilik uchun kurashish, fan-texnikaning eng so'ngi yutuqlarini tahlil qila bilish va undan o'zining faoliyatida oqilona foydalanishga erishish, doimo o'z ustida ishlash orqali erishiladi; taraqqiyotning samarali bosqichlari uchun jonbozlik ko'rsatish, Vatan ravnaqi haqida tinmay qayg'urish va kishilarni bunday buyuk goyalarni amalga oshirishga jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

4. *Mehnatsevarlik* - o'z oilasida, mahallasida, faoliyat ko'rsatayotgan jamoasida, jamoat topshiriqlarini sidqidildan bajarish jarayonida amalga oshiriladi, ya'ni Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishda ushbu kategoriya shakllana boradi: Mehnatsevarlik insonlarning turmushuni farovon etadi, qarilik gashtini surishiga zamin xozirlaydi.

5. *Fidoiy bo'lish*. Unga ko'ra, turli millat va elat vakili turli masalada fidoyi bo'lishi kerak edi: 1) ajdodlarining bebaho merosini saqlash va asrashga; 2) milliy qadriyat va an'analarni avrab- avaylash rivojlantirishga. Buning ma'nosi Shuki, ajdodlar merosi o'zlashtirilishi va milliy qadriyatlar saqlanishi hamda rivojlantirilishi kerak. Ta'lim muassasalari o'quvchilarni bu omilga yo'naltira oldi. Bugungi kunda to'rt mingdan ortiq nomaddiy madaniyatimiz namunasi YUNESKO ning "Jahon nomoddiy madaniyat merosi faxrli ro'yxati" ga

kiritilganligini eslatish joiz. Bu madaniy meros ro'yxatida masjiddan tortib cherkovgacha, Qur'onu Bibliyaning qadimiy nusxasigacha, o'ndan ortiq millatlar elatning milliy qadriyatlari bor. Demak, ta'lim muassasalari o'quvchilari ajdodlarining merosi va milliy qadriyatlariga munosib kishilar sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogika kollejlari ta'lim muassasalarida talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish borasida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi – mazkur pedagogika kollejlari ta'lim muassasalarining talabalari ma'naviy axlohiy va vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanganlik darajasining tajribadan avvalgi va keyingi holatlarini o'rganish hamda ularda vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishiga erishish.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida bajarilishi nazarda tutilgan vazifalar quyidagilardan iborat etib belgilandi:

1. Pedagogika kollejlari ta'lim olayotgan talabalar o'rtasida bir necha turdagi anketa so'rovlarini tashkil etish asosida ularning qiyofasida aks etuvchi vatanparvarlik tuyg'ularining mavjud darajasini aniqlash.

2. Talabalarda Vatan, vatanparvarlik, vatanni sevishtirish, vatanparvarlik tuyg'ulari, tinchlik, farovonlik kabi tushunchalar, ularning mohiyati, ularning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati, ularni shakllantirish yo'llari va omillari to'g'risida tushunchalar berish.

3. Pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularining madaniyatining muvaffaqiyatli shakllanishini ta'minlovchi omillarni belgilash.

4. Bu borada yuzaga keluvchi muammolarni aniqlash.

5. Pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi yoki salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

6. Talabalar tomonidan vatanparvarlik tuyg'usi, ularning mohiyati, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatining anglab olinishiga erishish.

7. Pedagogika kollejlari ta'lim muassasalarining talabalarida vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishiga nisbatan mas'uliyat, shuningdek, bu boradagi amaliy faollikni Yuzaga keltirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish.

Talabalarning o'zlarida shakllangan milliy g'urur, milliy iftixor va milliy o'zlikni anglash tuyg'ulariga asoslangan holda vatanparvarlikni shakllantirishga oid ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy faoliyatni tashkil etishlarini ta'minlash.

Belgilangan vazifalarning ijobiy hal etilishida quyidagicha yo'l tutildi:

a) respondent talabalar va bo'lg'usi mutaxassislar o'rtasida anketa so'rovlarini tashkil etish;

b) respondent talabalarning faoliyatini o'rganish maqsadida bo'lajak mutaxassislarning (tadqiqotchining shaxsiy ishtiroki asosida) va bilvosita (pedagogika kollejlari faoliyat mazmunini yoritishga xizmat hiluvchi me'yoriy hujjatlar mazmuni bilan tanishish, mazkur o'quv Yurtida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar, shuningdek, ayrim o'rinlarda ota-onalar va jamoatchilik fikrini o'rganish asosida) pedagogik kuzatuvni tashkil etish;

v) respondent talabalar ishtirokida suhbat tashkil etish asosida qo'lga kiritilayotgan natijalarning haqqoniyligini tasdiqlash;

g) Yuqorida bayon etilgan ish uslublariga tayangan holda natijalarni umumlashtirish, ularni tahlil etish va muayyan xulosalarga kelish.

3.2. Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish bo'yicha tajriba – sinov ishlari va ularning natijalari

Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishga tayyorlash muammosini tadqiq etish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Mazkur muammo bo'yicha tajriba – sinov ishlari Bulung'ur pedagogika va sport kolleji, Samarqand pedagogika kollejlarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirokida ikki bosqichda o'tkazildi:

Birinchi bosqichda (2015 yil yanvar - fevral) tadqiqotda qo'yilgan muammo bo'yicha maxsus savolnoma tuzilib, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari o'rtasida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi va natijalar tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda (2016 yil mart – 2016 yil may) so'rovnoma takroriy o'tkazilib, uning natijalari tahlil qilindi va yakuniy xulosalarga kelindi.

Tajriba – sinov ishlarida 31 nafar talaba ixtiyoriy ishtirok etdi. Unda quyidagi vazifalar qo'yildi:

- a) pedagogika kollejlari talabalarining vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish mazmunidan xabardorligini aniqlash;
- b) talabalarning mazkur masalaning pedagogik mohiyatini bilishini o'rganish;
- v) ushbu masalaning hozirgi mavjud holati bo'yicha ma'lumot olish;
- g) talabaning mazkur masalaning shakllariga doir fikrlarini o'rganish;
- d) talabalarning ushbu masalaning metodlari bo'yicha ma'lumotga egalik darajasini aniqlash.

Talabalarga berilgan savollar va olingan javoblar
quyidagilardan iborat:

1-jadval. Savollar va javoblar

	Savollar	Javoblar					
		2016 yil fevral % hisobida			2016 yil yanvar % hisobida		
		“Ha”	“Yo‘q”	“Bilma dim”	“Ha”	“Yo‘q”	“Bil-madim”
	Agar Vatanparvarlik to'g'risida munozara bo'lib o'tsa, siz nima qilgan bo'lardingiz ?	16,7	15,6	67,7	61,3	12,4	36,3
	Agar Vatanni faqat boyliklari uchun sevish mumkin deyishsa, qanday javob bergan bo'lardingiz?	-	64,8	35,2	51,2	32,3	16,5
	Pedagogika kolleji talabalarida vatan-parvarlik tuyg'ula-rini shakllantirish-	19,0	41,8	59,2	58,4	32,7	8,9

	ning pedagogik mohiyatini tuShunasizmi?						
	Vatanga xiyonat nimalarda ko‘rinadi? deb so‘rasha qanday javob bergan bo‘lardingiz?	-	66,3	33,7	50,0	41,3	5,7
	Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish malakalarini mutaxassislik va ijtimoiy– gumanitar fanlarni o‘qitish vositasida shakllantirish mumkinmi?	61,4	16,7	21,9	73,4	9,8	17,8
	O‘quvchi va talabalarining vatanparvarligi nimalarda? ko‘rinadi deb so‘rasha qanday javob bergan bo‘lardingiz?	51,3	18,1	30,6	74,3	9,9	16,8
	Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning metodlarini bilasizmi?	-	76,3	23,7	41,9	49,0	29,1
	Pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish amaliy ahamiyatga egami?	53,4	41,4	5,2	64,2	31,3	4,5

Mazkur savolnoma bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomalar quyidagi natijalarni berdi:

2-jadval. Natijalar

	Savollar raqamlari	Javoblar	
		2015 yil fevral % hisobida	2015 yil yanvar % hisobida

		Tushunchaga ega”	“Tushunchaga ega emas”	Tushunchaga ega”	“Tushunchaga ega emas”
)	1	16,7	83,3	61,3	38,7
)	2	-	200,0	51,2	48,8
)	3	19,0	81,0	58,4	41,6
)	4	-	200,0	50,0	50,0
)	5	61,4	48,6	73,4	26,6
)	6	51,3	48,7	74,3	25,7
o)	7	-	100,0	41,9	58,1
)	8	53,4	46,6	64,2	35,8

Tajriba – sinov ishlari natijasi ijobiy degan xulosaga kelindi. Chunki javoblar nisbati quyidagicha bo‘ldi:

3-jadval. Xulosa

	Javoblar	2015 yil fevral % hisobida	2016 yil yanvar % hisobida
	Tushunchaga egalikning o‘ssishi	53,4	64,2
	Tushunchaga ega emaslikning pasayishi	46,6	35,8

Olingan natijalardan ko‘rinadiki, pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg‘ularini mohiyatini yorituvchi tushunchalar borasida etarli darajada nazariy bilimlarga ega emaslar. Respondent-talabalar ishtirokida o‘tkazilgan suhbatlarda ushbu holatning Yuzaga kelish savoblarini o‘rganishga harakat qildik. Ularning ta’kidlashlaricha, mazkur yo‘nalishdagi o‘qituvchilar tomonidan vatanparvarlik tuyg‘ulari borasida to‘laqonli ma’lumotlar bera olish imkoniyatiga ega manbalar etishmaydi. O‘qituvchilar tomonidan berilayotgan ta’lim-tarbiya asosida mazkur tushunchalarning o‘zlashtirilishi vaqt nuqtai nazaridan mumkin emas.

Talabalarning aksariyati o'qituvchilar tomonidan o'qilgan ma'ruzalarni qoralab borishga ulgurmaydilar. “ Vatanparvarlik tuyg'ulari borasida ma'lumot bera oluvchi manbalarni Internet tarmog'i orqali izlab ko'rdinglarmi?” degan savolga aksariyat talabalar xalqaro axborot tarmog'i xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega emasliklarini qayd etib o'tdilar. Respondentlarning fikrlariga tayangan holda ular tomonidan vatanparvarlik tuyg'ulari borasidagi nazariy va amaliy ma'lumotlarning puxta o'zlashtirilmaganligining asosiy omillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb topildi:

- 1) o'quv manbalarining etarli emasligi yoki mavjud adabiyotlarning pedagogika kolleji o'qituvchilari ehtiyojini qondira olmasligi;
- 2) o'qituvchilar tomonidan ko'rsatmali qurollardan samarali foydalanilmaslik;
- 3) Pedagogika kolleji talabalarining hammasi ham axborotli texnologiyalar xizmatidan foydalana olish ko'nikmasiga ega emasliklari;
- 4) talabalarning hammasida ham mustaqil ta'lim olish malakalarining etarli darajada shakllanmaganligi.

Mazkur holat tadqiqot doirasida amalga oshiriluvchi tajriba-sinov ishlarining keyingi bosqichlarida e'tiborga olinishi nazarda tutildi hamda kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalarni belgilab olindi:

- 1) tajriba jarayonida tashkil etiluvchi mashg'ulotlarda vatanparvarlik tuyg'ulariga oid tushunchalar va ularning mohiyati borasida pedagogika kolleji talabalariga batafsil ma'lumotlar berish;
- 2) ular tomonidan vatanparvarlik tuyg'ularini aks ettiruvchi tushunchalarning mohiyatini to'laqonli o'zlashtirilishiga erishish maqsadida ko'rsatmali qurollar, albomlar va roliklardan samarali foydalanish;
- 3) Pedagogika kolleji talabalarida psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil o'qish ko'nikmava malakalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalarni ishlab chiqish;
- 4) darsdan tashqari sharoitlarda talabalar tomonidan axborot texnologiyalar xizmatidan foydalanish malakasining o'zlashtirilishiga imkon beruvchi maxsus

o'quv kurslarini tashkil etish (yoki fakultativ mashg'ulotni o'quv rejasiga kiritish imkoniyatini izlash).

Respondent-talabalar e'tiboriga havola etilgan 2-tur anketa so'rovnomasiga bo'lajak mutaxassis-talabalarda vatanparvarlik tuyg'ulari to'g'risida tushunchalarning mavjudligini aniqlovchi quyidagi savollar kiritildi:

1. Siz vatanparvarlik tuyg'ulari to'g'risidagi tushunchalarni chuqur o'zlashtiryapman deb hisoblaysizmi?
2. Shaxsan Siz ma'naviy-axloqiy sifatlarinigizni qanday baholaysiz?
3. Siz o'zingizda vatanparvarlikka oid tushunchalar mavjud deb hisoblaysizmi?
4. Siz o'zingiz vatanparvarlik tuyg'ulari tushunchasini qanday deb hisoblaysiz?
5. Siz o'zingizda barqarorlik vatanparvarlik xislati mavjud deb hisoblaysizmi?
6. Qanday fikrdasiz, vatan ravnaqi, tinchlik tushunchasini saqlay olasizmi?
7. Vatanni sevish deganda nimani tushunasiz?
8. Vatan, vatanparvarlik, bunyodkorlik, ozodlik, vatanni sevish tushunchalarining mohiyati nimalardan iborat?
9. Siz O'zbekiston vatanparvar, tinchliksevar mamlakat degan fikrga qanday yondashasiz?
10. Yurt tinchligi tamoyilining mazmun-mohiyati nimadan iborat?

Respondent- talabalarda vatanparvarlik tuyg'ulari tushunchasining mavjud darajasini aniqlashga yo'naltirilgan ikkinchi tur so'rovnomasi ularning o'z-o'zini baholash borasidagi layoqatlari borasida ham ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

Ikkinchi tur anketa so'rovnomasi savollariga javob berar ekanlar, respondent- talabalar o'zlari ega bo'lgan vatanparvarlik tuyg'ulari to'g'risidagi bilimlar darajasini nisbatan Yuqori baholaydilar. Xususan, tajriba guruhida:

- 1) Yuqori darajada – 27,1 foiz (25 nafar);
- 2) o'rta darajada – 34,7 foiz (32 nafar);
- 3) quyi daraja – 38 foiz (35 nafar).

Ushbu savol bo'yicha nazorat guruhi respondentlarining javoblari ko'rsatkichlari esa quyidagicha bo'ldi:

- 1) Yuqori darajada – 31,5 foiz (29 nafar);
- 2) o'rta darajada – 29,3 foiz (27 nafar);
- 3) quyi daraja – 39,1 foiz (36 nafar).

Har ikki guruhning respondentlar eng yuqori ko'rsatkichlar asosida ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanganlik darajasini qayd etadilar.

CHunonchi, tajriba guruhida:

- 1) Yuqori darajada – 44,5 foiz (41 nafar);
- 2) o'rta darajada – 30,4 foiz (28 nafar);
- 3) quyi daraja – 25 foiz (23 nafar).

Nazorat guruhida:

- 1) Yuqori darajada – 47,8 foiz (44 nafar);
- 2) o'rta darajada – 33,6 foiz (31 nafar);
- 3) quyi daraja – 18,4 foiz (17 nafar).

Aksariyat respondentlar o'zlarining bolalarga nisbatan mehr-muhabbatli ekanliklarini ta'kidlaganlari holda, mazkur sifatleri darajasini ham Yuqori baholaganlar. Xususan:

Tajriba guruhida:

- 1) Yuqori darajada – 40,2 foiz (37 nafar);
- 2) o'rta darajada – 26 foiz (24 nafar);
- 3) quyi daraja – 33,6 foiz (31 nafar).

Nazorat guruhida:

- 1) Yuqori darajada – 44,5 foiz (41 nafar);
- 2) o'rta darajada – 22,8 foiz (21 nafar);
- 3) quyi daraja – 32,6 foiz (30 nafar).

Respondent- talabalar eng past daraja o'quv-tarbiya jarayonida vatanparvarlik tuyg'ulari malakasiga egalik darajalarini baholaganlar. Ya'ni:

Tajriba guruhida:

- 1) Yuqori darajada – 8,6 foiz (8 nafar);

2) oʻrta darajada – 11,9 foiz (11 nafar);

3) quyi daraja – 79,3 foiz (73 nafar).

Nazorat guruhida:

1) Yuqori darajada – 7,6 foiz (7 nafar);

2) oʻrta darajada – 17,3 foiz (16 nafar);

3) quyi daraja – 75 foiz (69 nafar).

Anketa soʻrovini tashkil etish jarayonida talabalari, yana shuningdek, vatanparvarlik tuygʻulari darajalarini past koʻrsatkichlar asosida baholashgan.

Quyida bu boradagi koʻrsatkichlar keltiriladi:

Tajriba guruhida:

1) Yuqori darajada – 15,2 foiz (14 nafar);

2) oʻrta darajada – 22,8 foiz (21 nafar);

3) quyi daraja – 61,9 foiz (57 nafar).

Nazorat guruhida:

1) Yuqori darajada – 10,8 foiz (10 nafar);

2) oʻrta darajada – 18,4 foiz (17 nafar);

3) quyi daraja – 70,6 foiz (65 nafar).

Vatane ravnaqi tushunchasini ham respondent- talabalarda nisbatan past darajada baholashganligini aniqlashgan. Yaʼni:

Tajriba guruhida:

1) Yuqori darajada – 19,5 foiz (18 nafar);

2) oʻrta darajada – 25 foiz (23 nafar);

3) quyi daraja – 55,4 foiz (51 nafar).

Nazorat guruhida:

1) Yuqori darajada – 15,2 foiz (14 nafar);

2) oʻrta darajada – 19,5 foiz (18 nafar);

3) quyi daraja – 65,2 foiz (60 nafar).

Yuqorida keltirilgan koʻrsatkichlardan anglanadiki, tajriba va nazorat guruhlarining respondentlari tomonidan 1- va 2-tur anketa soʻrovnomasi savollari Yuzasidan qaytarilayotgan javoblarda keskin farqlar sezilmaydi. Ana Shu holat


javob ko'rsatkichlari asosida yoritilayotgan sifatlarning talabalarda bir qadar mo'tadil shakllanganligi hamda vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishi uchun xizmat qiluvchi muhitning bir xil xususiyat kasb etishini anglatadi.

Tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish uchun biz «Microsoft Excel» elektron jadvalining diagramma «ustasi» dan foydalandik. Bunda olingan natijalar quyidagi diagramma shaklida aks ettirildi.

Bulung'ur pedagogika-sport kolleji talabalari bilan o'tkazilgan so'rov natijalari

Nazorat Tajriba

guruhi guruhi



Ikkinchi tur anketa so'rovi borasida respondentlarning javoblari natijalarini tahlil etish shundan dalolat beradiki, tajriba hamda nazorat guruhlarining ishtirokchilari birdek o'zlarining ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda Vatanparvarlik tushunchasini yuqori baholaganliklari holda o'quv-tarbiya jarayonida vatanparvarlik tuyg'ulari tushunchalari borasidagi malakalarini keskin darajada past deya baholaganlar.

Tajriba ishlarining keyingi bosqichlarda qayd etilgan mazkur holatlarga barham berish yuzasidan quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1) Pedagogika kollejlari ijtimoiy-gumanitar va Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanlari bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulotlar jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg'ulari: vatan, vatanparvarlik, bunyodkorlik, adolatlilik, tinchlik, osoyishtalik tushunchalari borasida etarli ma'lumotlarni berilishiga erishish;

2) talabalar ongiga pedagogik texnologiya va uning asoslari borasidagi nazariy bilimlarni chuqur singdirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, shu asosda vatanparvarlik tuyg'ulariga oid maxsus ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;

3) Pedagogika fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish chog'ida talabalar vatanparvarlik, vatanni sevish, bunyodkorlik, yurt tinchligi, vatan ravnaqi tushunchasining mohiyatini chuqur o'zlashtirilishiga erishish;

4) mutaxassislik, shuningdek, maxsus fanlar bo'yicha mavzularning o'rganilishi jarayonida talabalarda og'zaki nutq madaniyatining shakllanishi uchun imkon beruvchi mashqlar va treninglardan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR

Yoshlar tarbiyasi, ularning dunyoqarashi, jamiyat taraqqiyotidagi o'рни, ijtimoiy-siyosiy faolligi ko'p jihatdan ta'lim va tarbiya jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham zamonaviy iqtisodiyot, ilm-fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida malakali mutaxassislarni tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish hozirgi vaqtda mamlakat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida ta'limi tizimi nazariyasi va amaliyoti oldiga dolzarb muammolarni qo'ydi. Chunonchi, talaba-yoshlarning istiqlol g'oyasi asosida g'oyaviy-siyosiy etuk fuqaro bo'lib shakllanishi, milliy mafkura va yuksak fuqarolik burchini anglashi, salohiyatli va ilmiy dunyoqarashga ega shaxs sifatida shakllanishi ta'lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu borada pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni o'z faoliyatida namoyon eta oladigan ma'naviyatli shaxs – talabalarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Lekin shu kungacha pedagogika kollejlari ta'lim tizimida talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish pedagogik jihatdan tadqiq etilmagan va u hozirgi davrning dolzarb muammosi sifatida o'z echimini kutmoqda. Biz o'z magistrlik dissertatsiyamizda ana shu masalalarni tadqiq etishga harakat qildik.

Mazkur muammolarini chuqur tahlil etish asosida talabalarni hozirgi tahlikali dunyoda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirib, bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zlariga to'g'ri yo'l tanlashga yo'naltirishni taqozo etadi. Shunga ko'ra ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash asosida talabalarni fikrlar xilma-xilligi, tanqidiy va mustaqil fikrlashga yo'llash, o'z fikrini bahs-munozaralarda erkin va ijodiy bayon eta olishiga erishish talab etiladi.

Pedagogika kolleji talabalari vatanparvarlik tuyg'ularining asl mohiyatini anglab etishi, hozirgi sharoitda yoshlarni to'g'ri yo'ldan chetga chiqarishga undovchi buzg'unchi g'oyalardan himoyalashga yo'llashi, mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining ijobiy natijalarini va vatanparvarlik tushunchalarini ular ongiga singdirish, talabalarning ongi va

tafakkurini o'zgartirishiga erishish; bu borada talaba-yoshlarga kelajakka ishonch tuyg'usini uyg'otish eng zarur vazifalardan sanaladi.

Hozirgi zamon pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga tayyorlashning imkoniyatlari mavjud. Mazkur masala bo'yicha tadqiqot natijasida quyidagi **umumiy xulosalarga** kelindi:

birinchidan, pedagogika kollejlari talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularining pedagogik mazmuni shaxsning Vatan, vatanparvarlik, Vatanni sevish, uni ardoqlash, Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, uning osoyishtaligini ta'minlashni shakllantirish;

ikkinchidan, pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishga tayyorlash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi;

uchinchidan, mazkur ishni amalga oshirishning ilmiy – nazariy va metodologik asoslari mavjud, ular pedagogik topshiriq, seminar, maxsus mashg'ulot o'tkazish, trening, mahorat maktabi va rolli o'yinlar kabi ta'lim shakllari va metodlaridan iborat;

to'rtinchidan, pedagogika kolleji talabalarida vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishga tayyorlash ijtimoiy, pedagogik va ma'naviy ahamiyatga ega;

beshinchidan, mazkur ishni amalga oshirishda ta'limning faol o'qitish texnologiyalariga asoslanish kerak.

Tadqiqot natijalari Yuvasidan quyidagi **tavsiyalarni** taqdim qilish mumkin:

1. Pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarda (talabalarda) vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirishni yo'lga qo'yish bo'lg'usi pedagog-mutaxassislarning kasbiy etuklik ko'lamini kengaytiradi.

2. Mazkur jarayonda talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish uchun shakllantirish uchun "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanini va ijtimoiy-gumanitar fanlarni, Tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish hamda fakultativ kurs tashkil etish hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

3. Talabalarni pedagogika kollejlari ta'lim jarayonida vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish uchun eng ilg'or va zamonaviy texnologiyalarga asoslanish kerak bo'ladi. Bunda Kompyuter va texnik jihozlar imkoniyatdan foydalanib ishlab chiqilgan axborotli texnologiyalar qo'l keladi.

4. Mutaxassislik fanlari va tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish asoslariga doir mavzular bilan boyitilishi kerak.

5. Pedagogika kolleji o'qituvchilari talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish uchun keng ko'lamli targ'ibot ishlarini olib borishi va tarbiyaviy tadbirlar tashkil etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: “O‘zbekiston”, 2008.
2. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O‘zbekiston, 1996. -380 b.
3. Karimov. I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 jild. -T.: O‘zbekiston nashriyoti, 1996 .
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4 jild. -T.: O‘zbekiston nashriyoti, 1996 .
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasidir. -T.: O‘zbekiston, 1996. -387 b.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O‘zbekiston, 1997. -326 b.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. «SHarq» nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati. 1997 y. – 63 b.
8. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin». Tafakkur jurnali bosh muharriri savollariga javoblari. 1998 y. 2 s.
9. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Muloqot jurnali, 1998 y. 5 s.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lidan 6- jild. -T.: O‘zbekiston nashriyoti, 1998 y.
11. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7 jild. -T.: O‘zbekiston nashriyoti, 1999 y.
12. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8 jild. -T.: O‘zbekiston nashriyoti, 2000 y.
13. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.-T. Sharq, 1993 y. -30 b.
14. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» - T.: “Sharq”, 1997.
15. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998. –20-29 b.
16. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.- 31-61 b.
17. Abdullaeva q.A, Safarova R.g‘, Bikbaeva N.U, Baxramov. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. Boshlang‘ich ta’lim jurnali №6 –1998.

18. Abdullaeva q.A, Safarova R.G‘, Bikbaeva N.U, Baxramov. Boshlang‘ich ta‘lim Konsepsiyasi. Boshlang‘ich ta‘lim jurnali №6-1998 y.
19. Abdullaeva Q. Ochilov M., K.Nazarov, S.Fuzailov, N.Bikbaeva «Boshlang‘ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari. T.: 1999.
20. Anartaeva G.U. Pedagogicheskie osnovy formirovaniya gumanizma u podrostkov v protsesse uchebno – vospitatelnoy raboto‘. Avt.ref.dis.na sosik. uchen.step.kand.ped.nauk – T.: 2004 y. 23 b.
21. Ajdodlar o‘giti. -T.: Cho‘lpon, 1991 y. -238 b.
22. Azarov YU.P. Bolalarni sevish san‘ati. -T.: O‘qituvchi, 1992 y. -198 b.
23. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan BMI avtoreferati. – T.: 2003 g. 44 s.
24. Aminov B., Rasulov T. Vatan - Yurakdagi javohir. -T.: O‘qituvchi, 1996 y. -160 b.
25. Amir Temur Kuragoniy. Zafar yo‘li. -T.: Nur, 1992 y. -109 b.
26. Amir Temur o‘gitlari. -T.: Navro‘z, 1992 y. -63 b.
27. Amir Temur. Temur tuzuklari. -T.: g‘.g‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1996 y
28. Axloq odobga oid hadis namunalari T.: Fan.1990 y.-169 b.
29. Aliev A. Ma‘naviyat, qadriyat va badiyat (Vatan fidoiylari). – T.: Akademiya, 2000. – 630 b.
30. Abdullaeva Q., Safarova R. , Bikboeva N. Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi. // Boshlang‘ich ta‘lim, 6-son, 1998. – 2-8-betlar.
31. Ahmedov B. Vatan tarixidan lavhalar. – Toshkent: Cho‘lpon, 2001. –176 b.
32. Vatan tuyg‘usi /Tuzuvchilar: A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo‘raev. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 439 b.
33. Valieva N. O‘quvchilarda o‘zbek adabiyoti materiallari asosida o‘rtoqlik va do‘stlik hissini tarbiyalashning ayrim masalalar. P.f.n. olish uchun yozilgan avtoreferati.2002.-23.b.
34. Vatan tuyg‘usi. -T.: O‘zbekiston, 1996 y. -398 b.

35. De Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-140 b).-T; O‘zbekiston. 2010.-264 b.
- 36.Inomova M.O. Pedagogicheskie osnovy ispolzovaniya natsionalnykh sennostey v duxovno-nravstvennom vospitanii detey v seme. Avto.ref.dis. na soisk.uchen. step.d-ra ped nauk. -T.: 1998 g. -41s.
37. Ilmi axloq.T.: YO‘zuvchi. 1993.-15.b.
- 38.Izuchenie lichnosti shkolnika uchitelem. -M.: Pedagogika, 1991 g. -135 s.
39. Lokk D. Мысли о воспитании. Том je.-145-178 s.
- 40.Postonotssi I.G.O Narodnom obrazavani i indutrii Tom je. -312-355 s.
41. Madaniyat va jamiyat. -T.: O‘zbekiston, 1993 y. -94 b.
42. Mallaev N. So‘z san’atining gultoji. -T.: g‘g‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nshriyoti, 1991 y. -149 b.
43. Ma’naviyat darslari. -T.: O‘qituvchi, 1994 y. -319 b.
44. Ma’naviyat Yulduzlari. -T.: Abdulla qodiriy nomidagi nashriyot, 1999y.
45. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
46. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1993. – 112 b.
47. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at /Mualliflar: M.Abdullaev, M. Abdullaeva, G. Abdurazzoqova va boshq. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda. – T.: Sharq NMAK, 2000. – 320 b.
48. Mahkamov U.I. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994. – 134 b.
49. Mahkamov U.I. O‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – T.: Fan, 1995. – 200 b.
50. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida). – T.: SHarq NMAK, 2001. – 160 b.
51. Mahmudov M.X. Ta’limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari: Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. – T.: 2004. – 45 b.

52. Maxmutova G.I. Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari: Ped.fan.nomz. ... diss.avtoref. – T.: 2004. – 22 b.
53. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar /Ma'ruza matnlari uchun materiallar. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 183 b.
- 54.“Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va Respublika ta'lim tizimiga joriy\ etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi //Ma'rifat. – Toshkent: 2001. – 18 yanvar.
- 55.“Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. // Xalq so'zi. – Toshkent: 2006. – 25 avgust.
56. Ma'naviyat Yulduzlari / Xayrullaev M.M. tahriri ostida. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999. – 392 b.
- 57.Qodirov B.G'. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. – T.: Mehnat. 2001. – 195 b.
- 58.Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari.-T. O'zbekiston. 2007.-272 b.
59. Mo'minov A.G Milliy siyosat va madaniy sohadagi islohatlar.-T. Akademiya. 2010.-200 b.
60. Musurmonova O.Yoshlarning mafkuraviy sog'lomligi – ogohlik garovi// Uzluksiz ta'lim. №3 2006 yil. 84- 90 betlar.
61. Ochildiev A. Milliy fazilatlarimiz vatanparvarlik.-T.: “Akademiya”, 2010.
- 62.Usmanov N. “Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini milliy g'oya targ'ibotiga tayyorlashning pedagogik va texnologik asoslari.-T: “Fan va texnologiya”. 2014. 27-bet.
63. YUsuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. –T.: “Fan”. 1971.
64. Quronov M. Milliy tarbiya. –T.: “Fan”, 2007

65. Quronov M. Milliy ma'naviyat hamda kasb madaniyatini o'rganishning pedagogik asoslari. A.Navoiyning «Hayratul – abror» asarini pedagogik o'rganishga bag'ishlangan maxsus kurs dasturi – T.: 1997 –12 bet.
66. Qosimova Z.X. Talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fan.nom. ... diss. avtoref. – T.: 2004. – 20 b.
67. Qosimov U.A. Komil insonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psix.fan.nom. ... diss. avtoref: – T. : 2004. – 24 b.
68. Qosimov B. Milliy uyg'onish. – T.: Ma'naviyat, 2002. – 400 b.
69. Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E.A., Quronov M. va boshq. Milliy istiqlool g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondaShuvlar (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida). – T.: Akademiya, 2002. – 280 b.
70. Quronboev Q.Q. Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida): Ped.fan.nomz. ... diss. – T.: 2000. – 155 b.
71. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. – T.: Fan, 1995. – 118 b.
72. Qodiriy A. O'tkan kunlar.- T; SHarq. 2009.-400 b.
73. Qadimiy hikmatlar. Matnlar.-1987.-450 b.
74. Xo'jamurodov I., Saydullaeva N. Ma'naviyat – inson go'zallikdir. – Toshkent: Mehnat,1998. – 133 b
75. Hamroeva X. Alisher Navoiyning vatanparvarlik g'oyalaridan foydalanib o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari. P.f.n. olish uchun yozilgan diss. Avtoref. 1999.-18 b.
76. Hasanboev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at.-T.: “Fan va texnologiya”, 2009.
77. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: “G'.Gulom nomidagi matbaa nashriyoti”, 2010.

INTERNETDAN OLINGAN ADABIYOTLAR

- 78.Bob kizlik. Lesson Planning, Lesson Plan Formats and Lesson Plan Ideas.. [www. ADPRIMA com.](http://www.ADPRIMA.com)

79. Okolelov O.P. Distansionnoe obuchenie: suщnost, didakticheskie osobennosti texnologii. <http://www.lipetsk.ru/legi>
80. Mila Novik. Sovremennoe texnologii v obrazovanii (prodoljenie)// Novoe znaniya. 1999 №4 s 39-42 [www.dvgu.ru /umu/ didjest /new know/ yar 99/ mainkn 99.htm](http://www.dvgu.ru/umu/didjest/newknow/yar99/mainkn99.htm).

Pedagogika kollejlarda vatanparvarlikni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulot

“O'ZBEKISTON KELAJAGI BUYUK DAVLAT”

(“Mustaqillik kuni” bayram tadbiri ssenariysi)

Tadbir o'tkaziladigan joy gullar, sharlar, bayroqchalar va mamlakatimizning go'zal maskanlari tasvirlangan suratlar bilan bezatilgan. Devorlarga esa “Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!”, “Kelajak yoshlar qo'lida”, “O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat!”, “Taqdirimsan, baxtimsan erkin va obod Vatan!” kabi shiorlar ilingan.

Sahna ortidan ovoz: - Onaday buyuk, nonday aziz Istiqlol xalqimizning azaliy orzusi edi. Nihoyat, 1991 yil 31- avgust kuni Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida Respublikamizning davlat mustaqilligi to'g'risidagi bayonot qabul qilindi. 1- sentyabr esa O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni deb e'lon qilindi. Bu asrlar davomida ota-bobolarimiz orzu qilgan kun edi.

O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi yangraydi.

Davruga ikki boshlovchi – o'quvchi kirib keladi.

1- boshlovchi:

-Tinglang, yangramoqda sherlar, qo'shiqlar-

Istiqlol kuylari ko'ngilga malham.

Biz – ozod g'unchalar, biz – erkin qushlar,

Qalbimizda surur, deymiz: “Assalom!”

2 - boshlovchi:

- Bugun boshimizda Quyosh parvona,

Yorug' yo'llarimiz mangu bardavom.

Nigohlarda hayrat, Yuraklar yona,

Biz – baxtli bolalar deymiz: “Assalom!”

1- boshlovchi: - Assalomu alaykum, aziz va mehribon ustozlar, bilimga chanqoq o'quvchilar!

2 - boshlovchi: - Assalomu alaykum, davramizga tashrif buYurgan aziz mehmonlar! Barchangizni Vatanimizning qutlug' to'yi bilan muborakbod etamiz!

1- boshlovchi:

Vatan desam, tomirlarim titragaydir,
Vatan desam tarifga so'z yetmagaydir,
Vatan desam ko'nglim quvna so'z ochmoqqa,
Vatan desam Yurak g'amga botmagaydir
Mustaqillik Vatan baxti aziz nemat,

O'ZBEKISTON KELAJAGI BUYUK DAVLAT

2 - boshlovchi:

Bu muqaddas zamin uzra ozod elim,
Gullab - yashnab ravnaq topar obod elim,
Baland ko'tar ozod Yurting bayrog'ini,
Taraqqiyot cho'qqisida nomzod elim,
Har bir o'zbek Shu tuproq deb yongay albat,

O'ZBEKISTON KELAJAGI BUYUK DAVLAT

Qizlar ijrosida "Tanovar" raqsi. Raqsdan so'ng o'quvchilar davraga chiqishadi.

Ular Vatan haqida maqollar aytadilar:

1 – o'quvchi: - Vatan ostonadan boshlanadi.

2 – o'quvchi: - Ona Yurting – oltin beshiging.

3 – o'quvchi: - O'zga Yurtda shoh bo'lguncha,
O'z Yurtingda gado bo'l.

4 – o'quvchi: - Ona – bitta, Vatan – yagona.

"O'zbekiston" qo'shig'i bilan tadbirga yakun yasaladi.

Mustaqillik bayrami O'zbekistonning faxri va iftixori hisoblanadi. Chunki mustaqillik bayrami, mustaqillik kunini xalqimiz necha asrlar davomida orzu qiladi. Uning bu orzu yo'lida kechgan jafolari natijasida qadriyatlar toptaldi, udumlar mazax qilindi, milliy ong zaharlandi. Shuning uchun ham mustaqillik

bayramining ahamiyatini soʻz bilan ifoda yetish qiyin, uni har bir oʻquvchi Yuragidan his yetishi lozim. Chunki mustaqillik bayrami xalqimiz uchun yagona bayram. Yeng milliy va yeng oʻzbekona bayram.

Prezidentimiz I. Karimov “Oʻzbekiston kelajagi buyuk davlat” risolasida “Vatanning har bir asl farzandi oʻzining ota yurtini ajralmas boʻlagi deb his yetyapti va bundan faxrlanayapti. Istiqlol bergan yeng katta boyliklardan birinchisi ana Shu desak also yanglishamagn boʻlamiz”-xalqimizning necha asrlardan buyon yagona orzu-ona Vatan bilan yashaganini juda toʻgʻri taʼkidlardilar.

Kelajakda buyuk davlat darajasiga koʻtarilish maqsadi yoʻlida intilayotgan Oʻzbekiston Vatani xalq hayoti, turmush tarzi, urf-odatlarini, maʼnaviy qadriyatlarini oʻzida mujassamlashtirmoqda. Shunday yekan, har bir oʻqituvchi oʻz oʻquvchilarida vatanparvarlikni shakllantirishda quyidagilarni amalga oshirish zarur.

-ona Vatanga boʻlgan muhabbat, uni sevish, yeʼzozlash, uning ravnaqiga har bir oʻquchining oʻz xissasini qoʻshishga yerishish;

-ona Vatan, mustaqil Oʻzbekiston tushunchalarini oʻquvchi ongiga singdirish va unga sodiq boʻlish;

-vatanimiz xalqiga, uning anʼanalariga, tili va amdaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga oʻz hissasini qoʻshish, uning haqiqiy jonkuyari boʻlish;

- oʻzbek xalqining madaniy meroslari hisoblangan madaniyat, sanʼat, meʼmorchilik yodgorliklarini asrab avaylash va ularning tarixi hamda bugungi kunda ahamiyatini bilish;

-oʻz millatiga, ona Vataniga, iymoniga sodiq boʻlish;

-Vatan oldidagi maʼsuliyati bilan yashash.

Vatan taraqqiyoti, millat obroʻsiga hissa qoʻshish, foyda keltirish, fidoiylik va halollik bilan mehnat qilish, xalqining shon-shuhratini, manfaatini oʻylash, insonparvar boʻlish;

-har bir o`quvchining o`z xalqiga bol`gan fidoiyligi va xalq dardini o`z dardlaridek o`ylab yashash, O`zbekistonning buyuk davlat bo`lishiga hissa qo`shish va boshqalar.

Chunki, vatanparvarlik-shaxsni axloqiy madaniyatini shakllantirishning yeng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun har bir o`quvchida quyidagilarni mujassamlashtirish maqsadga muvofiqdir:

1. Mustaqillik his-tuyg`ularini shakllantirish va unga amal qilish;
2. O`zbek milliy g`ururiga sodiqlik;
3. Ko`p millatli O`zbekiston xalqiga do`stlik munosabatlari;
4. Jamiyatni insonparvarlashtirishda o`z hissasini qo`shish;
5. Har bir yerda tartib intizomli bo`lish.

Mustaqil O`zbekistonning madhiyasi, bayrog`i, gerbidagi paxta, bo`g`doy, humo qushi, mamlakatimiz tuprog`ida yashab turgan va o`zini vatanparvar deb hisoblagan har bir o`quvchining qalbidan chuqur o`y olishi va uni asrab avaylashi shart.


Jonajon O`zbekistonimizda turli millat vakillari yashaydilar. Ularning ko`plari mana Shu vatanimizda tug`ilib, voyaga yetganlar. Ular ham faxr bilan: „O`zbekiston — mening Vatanim, deydi.

Biz vatanimizda yashaydigan barcha millat bolalari bilan do`st bo`lib, tinch-totuv yashashni istaymiz.

„Hamisha navqiron Toshkent“ kitobidan

1. Vatanimiz qanday nom bilan ataladi?
2. O`zbekistonda qanday shaharlar bor?
3. **Vatan haqidagi maqollardan yod oling.**

2-ilova



3-ilova

